

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**KOMILOV RO‘ZI RABIYEVICH**

**O‘ZBEK XALQI NIKOH MUNOSABATLARINING AXLOQIY-  
ESTETIK MOHIYATI VA TRANSFORMATSIYASI**

**09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the Doktoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Komilov Ro‘zi Rabiyeovich**

О‘zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasi ..... 3

**Комилов Рузи Рабиевич**

Нравственно-эстетическая сущность и трансформация брачных отношений узбекского народа ..... 33

**Komilov Ruzi Rabiyeovich**

Moral and aesthetic essence and transformation of marriage relations of the Uzbek people ..... 65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 69

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**KOMILOV RO‘ZI RABIYEVICH**

**O‘ZBEK XALQI NIKOH MUNOSABATLARINING AXLOQIY-  
ESTETIK MOHIYATI VA TRANSFORMATSIYASI**

**09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Fal63 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Samadov Aktamkul Rafikovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Nurmatova Mukarram Ahmedovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov Abduxakimjon Ziyotdinovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar xalqlar madaniy hayotidagi asrlar davomida qaror topgan nikoh munosabatlarining degradatsiyaga uchrayotganligi bilan xarakterlanmoqda. Nikoh va oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglamasdan, ularni yo'qotishga, insoniyat erkinligiga putur yetkazuvchi sarqit sifatida baholovchi nigilistik qatlamlar shakllanmoqda. Bunday qarashlar g'arb-u sharq xalqlari hayotiga birdek kirib bormoqda. Shu bois oila-nikoh munosabatlarining axloqiy-tarbiyaviy hamda etnoestetik mohiyatini anglab yetish, transformatsiyasiga sabab bo'luvchi konseptual asoslarini aniqlash va insoniyat progressiv taraqqiyotidagi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

Dunyo ilm-fanida barcha ijtimoiy-gumanitar soha institutlari, markazlari, tadqiqotchilari tomonidan oila-nikoh munosabatlariga doir nazariy-metodologik va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, nikohning paydo bo'lib rivojlanish evolyutsiyasi, nikohdan qoniqishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikoh etnografizmlarining lisoniy-lingvomadaniy talqini, nikohning insoniyat demografik o'zgarishiga ta'siri, nikohni tartiblashtirish maqsadida diniy, milliy, huquqiy munosabatlarning funksiyalari tasnifi bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-fundamental ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, globallashuv davrida oilaviy qadriyatlarning deformatsiyalashuvi natijasida xaostik dinamikani ortib borishi va "o'zaro hurmat", "hissiy intilish"ning degradatsiyaga uchrayotganligi sabab, nikoh munosabatlarining estetik mohiyati va axloqiy-aksiologik sifatlarini asrab qolish, transformatsiyasining ijobiy hamda salbiy oqibatlarini tadqiq etish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda oila-nikoh instituti mustahkamligi va farovonligini ta'minlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, sog'lom, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash hamisha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi"<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan voyaga yetmaganlar nikohini oldini olish, oilaviy marosimlarni ixchamlashtirish va nikoh bilan bog'liq ba'zi udumlarning transformatsiyaga uchrab axloqiy qadriyatlarimizga mos kelmayotganligini ilmiy tahlil qilish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 7-martdagi PF-87-son "Oila va xotin qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 72-73.

ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" farmonlari, shuningdek, 2021-yil 1-martdagi PQ-146-son "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" va 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.**

Nikohning kelib chiqishi, uning falsafiy, diniy, axloqiy, huquqiy, psixologik, pedagogik mohiyati bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Pennsylvania, Utah State University (AQSH), Uppsala University (Shvetsiya), Universität Wien, Universität Innsbruck (Avstriya), Hamburg University (Germaniya), Тамбовский государственный университет, Кубанский государственный университет (Rossiya), Hiroshima University (Yaponiya), Koreya sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar instituti (Janubiy Koreya), Абай атындағы Қазақ ұлттық педагогикалық университети (Qozog'iston), O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti yetakchi olimlari va faylasuflari tomonidan oila va nikoh munosabatlari bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda nikoh munosabatlarining insoniyat hayotidagi ahamiyati va uni etnomadaniy mohiyati, assimilatsiya jarayonlari, diniy mansubliklar bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Sharq va g'arbda yigit va qizlarning nikohgacha bo'lgan munosabatlari etnomadaniy kelib chiqishiga bog'liqligi ilmiy asoslangan (University of Pennsylvania, AQSH); oilaviy ajrimlar sabablari va uni oldini olish bo'yicha tibbiy-psixologik amaliy tajriba natijalari keltirilgan (Utah State University, AQSH); Yevropada so'nggi uch yuz yil davomida nikoh shakli va funksiyalari tahlil qilinib, XXI asrda gender-neytral nikoh konsepsiyasining oilaviy

---

<sup>1</sup> <https://www.library.upenn.edu/>; <https://www.usu.edu/>; <http://uu.diva-portal.org/smash/record.jsf?pid=diva2%3A378042&dswid=-9354>; <https://www.dissertations.se/dissertation/982b89d283/>; <https://www.univie.ac.at/>; <https://www.uibk.ac.at/de/>; <https://www.verlagdrkovac.de/978-3-8300-4446-8.htm>; (<https://viewer.rsl.ru/ru/rsl01003463119?page=2&rotate=0&theme=white>); <https://www.tsutmb.ru/>; <https://www.kubsu.ru/ru/science/dissertations/d-21210118/institut-braka-v-prave-islamskih-gosudarstv-istoriko-pravovoe>; (<https://core.ac.uk/download/pdf/197309394.pdf> va [file:///C:/Users/User/Downloads/22\\_3-4-0039.pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/22_3-4-0039.pdf)) <https://www.unipage.net/ru/235/hiroshima-university>; <https://www.kihasa.re.kr/hswr/assets/pdf/489/journal-26-2-95.pdf>, <https://www.kihasa.re.kr/publish/report/view?type=policy&seq=29292>, <http://www.mediwelfare.com/news/articleView.html?idxno=380>; <https://www.kaznpu.kz/kz/>.

qadriyatlarga ta'siri, nikohning yangi modellarini tan olinishi va kelajakda nikoh institutining transformatsiyasi bo'yicha tadqiqot xulosalari keltirilgan (Uppsala University, Shvetsiya); nikohning huquqiy asosi, nikoh shartnomasi, nikohdagi konfliktlar va oila a'zolarining mulkiy munosabatlari xalqaro-xususiyl huquq me'yorlari asosida tahlil qilingan (Universität Wien, Avstriya); postindustrial jamiyatda an'anaviy nikoh mohiyatining yo'qolishi va oilada gender tartibidagi o'zgarishlar ijtimoiy-falsafiy tomondan o'rganilgan (Universität Innsbruck, Avstriya); nikohning axloqiy-teologik mohiyati, diniy dunyoqarashga muvofiq nikoh muqaddas ahd sifatida targ'ib etilishiga sabab, xudo tomonidan insonlarga muhabbat tuyg'usining berilganligi va transsendent g'oyalar asoslangan (Hamburg University, Germaniya); islom davlatlarida nikoh institutining rivojlanish evolutsiyasi va huquqiy tartibga solishning tarixiy-madaniy xususiyatlari hamda oilaviy munosabatlarga din, jamiyat, davlat ta'sirining mazmuni o'rganilgan (Кубанский государственный университет, Rossiya); Yaponiyada 20 yil oldin boshlangan va hozirda jiddiy muammoga aylanib borayotgan kech turmush qurish, hatto umrining oxirigacha yolg'iz yashash tendensiyalariga munosabat bildirilgan (Hiroshima University, Yaponiya); qadriyatlardagi o'zgarishlarni nikoh va tug'ilish koeffitsiyentining keskin tushib ketishiga sabab bo'lishi, ishchi kuchi taqchilligi, aholining qarish jarayonini tezlashishi insoniyat kelajagi muammolari o'rganilgan (Koreya sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar instituti, Janubiy Koreya); oilaviy-axloqiy qadriyatlarni talaba yoshlar orasida keng targ'ib qilib, ularni nikohga tayyorlash bo'yicha pedagogik nazariyalar ilgari surilgan (Абай атындағы Қазақ ұлттық педагогикалық университети, Qozog'iston); oila va nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyatini saqlash masalalari hamda uning transformatsiyasi oqibatlarini ilmiy tadqiq qilingan (O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston).

Dunyoda oila-nikoh munosabatlarini o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: oilaviy ajrimlar sabablari va uni oldini olish bo'yicha tibbiy-psixologik tajribalar o'tkazish; XXI asrda gender-neytral nikoh konsepsiyasining oilaviy qadriyatlarga ta'sirini aniqlash; nikohning axloqiy-teologik mohiyatini o'rganish; erta nikohlarning g'ayriaxloqiy sabab va oqibatlarini tahlil qilish; islom davlatlarida nikoh institutining rivojlanish evolutsiyasi va huquqiy tartibga solishning tarixiy-madaniy xususiyatlarini ochib berish; oilaviy-axloqiy qadriyatlarni yoshlar orasida keng targ'ib qilib, ularni nikohga tayyorlash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oila va nikoh munosabatlariga oid muammolar barcha davrlarda olimlar hamda diniy ulamolarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, ijtimoiy hayotda voyaga yetgan har bir jamiyat a'zosining nikoh asosida oilaviy munosabatlarga kirishishi, farzand tarbiyasi va oilaviy qadriyatlarni asrashga mas'ul ekanligi belgilangan. Nikoh erkak va ayolning bir-biriga muhabbati asosida hayotni davom ettirishdagi muhim omil sifatida baholanib, baxt-saodatga eltuvchi yo'l ekanligi tadqiqot yo'nalishi dolzarbligini

yanada oshirdi. So‘nggi asrlarda ushbu tadqiqot ishi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh. Xorijlik olimlar R.Shinvari<sup>1</sup>, G.Gadamer, A.Toynbi, Z.Freyd, F.Nitshe, Y.Xayzingalar nikohning kelib chiqishi, uning urf-odat va xalqlarning turmush tarzi bilan bog‘liq ayrim etnoestetik jarayonlarni tadqiq etganlar. Ularning ilmiy qarashlarida etnoestetik xususiyatlar nikohni obyektiv baholash uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Nemis mumtoz falsafasi vakillari Kant va Gegel<sup>2</sup> oilaning o‘z ma‘nosini to‘liq anglab yetishning imkoni yo‘qligini e‘tirof etgan. Jumladan, Kant davlat hayotida ishtirok etish, huquq va umumiy manfaat orqali namoyon bo‘ladigan er-xotin ittifoqi va ilohiyotda oila haqidagi tushunchalar bilan uyg‘un qarashni falsafiy birlashtiradi. Jahonning yetakchi faylasuf olimlari P.L.Berj, Dj.Garbarino, R.Skinner, Dj.Kliiz, L.A.Tilli va Dj.U.Skot kabilar<sup>3</sup> jamiyatning o‘zgarib borishida oila, oiladagi farzandlar va ularning kamoloti, er va xotinlik vazifalarini bajara olmasligi, oila hayotining ma‘naviy qiyofasi, oilaviy munosabatlar madaniyatining o‘zgarishi kabi masalalarni ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-biologik jihatlarini “inson va oila”, “oilva jamoa”, “jamiyat va davlat” kabi munosabatlar kontekstida submadaniyatlarning amal qilish nuqtayi nazari asosida tadqiq etganlar. Bugungi kunda ham oila xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli kontekstda o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, J.TL.Djonson<sup>4</sup> yoshlarda zo‘ravonlikning ifodalanishida oila instituti va uning etnomadaniy muhiti hamda ularning diniy mansubligi masalasiga to‘xtalib, e‘tiqodli yoshlarda zo‘ravonlik kam ifodalanishini ko‘rsatib o‘tgan.

Ikkinchi guruh. MDHda nikohning paydo bo‘lish tarixi, diniy, etnik, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllanishi, falsafiy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan A.B.Jvinklne, A.S.Kurbatova, E.I.Katovskaya, A.L.Lixacheva, K.D.Basayeva, S.S.Anisina, O.A.Morozova, A.Akosta<sup>5</sup>, S.A.Alekseyeva, B.F.Abolfazl<sup>6</sup>, M.M.Dexchenari, S.Z.Nishanbayeva<sup>7</sup>larning fundamental-amaliy g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, N.X.Orlova Yevropa madaniyatida nikoh va oilaviy munosabatlarning kelib chiqishi, diniy mohiyati, evolutsiyasi hamda zamonaviy o‘zgarishlari bo‘yicha fundamental fikrlarni bildirsa, M.E.Yurdanova<sup>8</sup> Rossiyadagi

---

<sup>1</sup>Rahim Shinwary. Concept of marriage. <https://hubpages.com/relationships/Concept-of-Marriage>.

<sup>2</sup>Гегель Ф. Философия права. – Москва: Мысл, 1990. – 265 с.

<sup>3</sup>Family Relationships and Well-Being Patricia A. Thomas, PhD, Hui Liu, PhD, and Debra Umberson, PhD // Downloaded from <https://academic.oup.com/innovateage/article/1/3/igx025/4617833> by guest on 20 June 2021., Thomas P.A. & Umberson D. Marital quality and cognitive limitations in late life. *The Journals of Gerontology, Series B: Psychological Sciences and Social Sciences*, 2016. 71, 165–176 pp. <https://doi.org/10.1093/geronb/gbv014>.

<sup>4</sup>Johnston J. Capital Distress: Productive Citizenship and Mental Health in Adolescent Literature. / For the Doctor of Philosophy degree. – Canada: 2021. – 233 p.

<sup>5</sup>Акоста А. Влияние межэтнического брака на этнокультурную идентичность подростка: Дис. ...канд. психо. наук. - Тамбов, 2012. -152 с.

<sup>6</sup>Аболфазл Б.Ф. Проблемы семьи и брака в философско-религиозной традиции Ирана: Дис. ...канд. филос. наук. - Душунбе, 2015. -145 с.

<sup>7</sup>Нишанбаева С.З. Педагогикалык жоғары оку орындары студенттерінің отбасыдамгершілік құндылықтарын қалыптастыру: Дис. ...канд. пед. наук. - Алматы, 2019. -160 с.

<sup>8</sup>Юрданова М.Э. Парадигма философии пола и семьи В.В. Розанова в контексте современных духовно-нравственных и религиозных отношений России: Дис. ...канд. филос. наук. - Калуга, 2011. -142 с.

zamonaviy oila munosabatlari kontekstida ma'naviy, axloqiy, diniy paradigmalarni tahlil qiladi. A.M.Artamonova nikohni insonlarni birgalikda yashashi va ularning ko'payishini ta'minlaydigan aksiologik asos sifatida ta'riflaydi. Oilani esa ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning yig'indisi, maishiy turmush tarzi, sevgi, intim, yosh avlodni ijtimoiylashtirib, tarbiyalaydigan institut deb ataydi.

Uchinchi guruh. O'zbekistonda nikoh va oilaviy munosabatlar xususida bir qancha tadqiqotchilar ilmiy ishlar bilan shug'ullanishmoqda. Jumladan, jadid allomamiz A.Fitrat oilani boshqarish borasida milliy va diniy qadriyatlarimizni o'z asarida umumlashtirgan. Etnografiya sohasida H.Ismoilov, I.M.Jabborov, A.Ashirov, A.E.Qurbonov, Z.A.Rasulova, G.S.Tosheva, B.R.Tursunov, N.M.Matkarimova<sup>1</sup>, B.K.Bekjanovalar O'zbekiston hududlarida nikohning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, marosimlardagi umumiylik hamda farqli tomonlari bo'yicha samarali izlanishlar olib borishgan. N.J.Yusupova<sup>2</sup>, E.X.Egamberdiyevlar nikohning islom shariati qoidalari va dunyoviy huquqiy asoslarini tahlil qilganlar. Filologiya sohasida F.B.Hayitova, M.Sh.Murodova, N.Sh.Kurbanazarovalar<sup>3</sup> o'zbek xalqi nikoh to'yi marosimlarining lisoniy va lingvomadaniy tadqiqi bilan shug'ullanganlar. O'zbekistonda oilaning ijtimoiy-demografik rivojlanishini kompleks tadqiq etish asosida nikoh munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha X.H.Mamadaliyeva<sup>4</sup> ilmiy ish olib borgan nikoh an'analari ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va nikohdan qoniqish, ajrim sabablarini ilmiy tadqiq qilgan; Sh.Sh. Jo'rayeva, Z.A.Rasulova<sup>5</sup>, R.S.Razakovalar R.S.Razakovalar yoshlarni oilaga tayyorlash motivlarini ko'rsatganlar. Falsafa sohasida o'zbek oilaviy munosabatlar bo'yicha tadqiqot olib borgan U.Qoraboyev, F.A.Primova, M.A.Nurmatova, O.J.Nishonova<sup>6</sup>, N.B.Abdullayeva, S.S.Abdukarimova, S.M.Ro'zimurodov, M.T.Zohirov, M.R.Dehqonov<sup>7</sup>, Sh.Q.Amirxo'jayev<sup>8</sup>, R.Sh.Bozorovalar sog'lom turmush tarzi, zamonaviy o'zbek oilasida milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati va madaniy transformatsiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo yuqorida sanab o'tilgan ishlarda o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va shakllanish sabablari ko'tarib chiqilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishida oilaning paydo bo'lishida asos bo'lgan o'zbek

---

<sup>1</sup>Matkarimova N.M. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври): Тар. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Нукус: УрДУ, 2020. -145 б.

<sup>2</sup>Юсупова Н.Ж. Ислом оила ҳуқуқи: пайдо бўлиши, ривожланиши, манбалари ва институтлари: Юридик. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ИИАУ, 2019. -225 б.

<sup>3</sup>Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Фил. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. – Термиз: ТерДУ, 2021. -132 б.

<sup>4</sup>Мамадалиева Х.Х. Ўзбекистонда оила ривожланишининг ижтимоий-демографик жиҳатлари: Иқт. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ТДИУ, 2019. -315 б.

<sup>5</sup>Расуллова З.А. Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси: Пси. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ТДПУ, 2018. -263 б.

<sup>6</sup>Нишонова О.Ж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари: Фалс. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2016. -202 б.

<sup>7</sup>Деҳқонов М.Р. Исломда оила ва никоҳ муносабатлари маданиятининг диний-фалсафий моҳияти: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: ЎзМУ, 2021. -135 б.

<sup>8</sup>Амирхўжаев Ш.Қ. Ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар трансформацияси (XX аср охири - XXI асрнинг боши): Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: АДУ, 2022. -155 б.

xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va evolutsiyasida transformatsion holatlarning ijobiy hamda salbiy oqibatlari tadqiq etiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" (2020-2022) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek xalqi nikoh munosabatlari axloqiy-estetik mohiyatini va transformatsiyasida mental xususiyatlarga zid bo'lgan sifatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nikoh tushunchasining etnoestetik tasnifi va tarbiyaviy, felitsitalogik, rekreativ funksiyalarining aksilogik jihatlarini tahlil qilish;

o'zbek nikoh marosimlarining mohiyatini adolat, mas'uliyat, burch, or-nomus, sadoqat, baxt singari axloqiy va go'zallik, ulug'vorlik, mubolag'a, forig'lanish, latofat, ideal, garmoniya kabi estetik kategoriyalarda ifodalanishini ochib berish;

o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining informativ, maqsadga muvofiqlik, erkinlik mezonlarining insonlarda nazokatli sifatlar hamda hayajonli hissiyotlar garmoniyasini shakllantirishga xizmat qilishini yoritib berish;

globallashuv natijasida transformatsiyaga uchrayotgan o'zbek nikoh marosimlarining axloqiy-estetik mohiyatidagi o'zgarish dinamikasini aniqlash;

oila-nikoh munosabatlari transformatsiyasining ijtimoiy hayotga ijobiy-salbiy ta'sirini baholash;

nikohdan tashqari, voyaga yetmaganlar, bir jinsli nikoh munosabatlarining g'ayriaxloqiy sabablari va oilaviy hayotdagi zararli oqibatlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'zbek xalqi nikoh munosabatlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati, transformatsiyaga uchragan odatlarining g'ayriaxloqiy holatlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning tarixiylik, taqqoslash, mantiqiylik, vorisiylik, tizimlilik, kuzatuv, obyektivlik kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'zbek xalqi nikoh marosimlari etnoestetik mohiyatining tadrijiy rivojlanishida informativ mezonning insonlar munosabatlariga kognitiv, integrativ, regulativ va funksional ta'siri ochib berilgan;

o'zbek nikoh marosimlarining turli davrlarda transformatsiyaga uchraganligi, ayrim an'analarni modernizatsiyalashgani, ba'zilari esa o'zining ijtimoiy ahamiyatini to'la yo'qotgani hamda bu jarayonlarning zamonaviy mental oilaviy munosabatlarga ta'siri isbotlangan;

o'zbek nikoh marosimlarining emotsional tomoshaviylik sifatleri jamiyat a'zolari o'rtasida affilyativ motivlarni shakllantirishi hamda etnomadaniy va

evdomanistik singari axloqiy-estetik mohiyati insonning ma'naviy-ruhiy forig'lanishida pozitiv omil ekanligi asoslangan;

nikohni adaptatsiya potentsiali tuzilishini namoyon qiluvchi autoregulyasion, kommunikatsion, motivatsion, kompromiss qaror kabi substansional komponentlari oilani barqarorlashtiruvchi indikatorlar sifatida yoshlar aksiologik dunyoqarashi rivojlanishiga ta'siri mantiqiy asoslangan;

jamiyatda qonunga zid nikohdan tashqari, bir jinsli, LGBT, sadizm, mazoxizm, gipermaskulitlik, nimfomaniya, voyaga etmaganlar nikohi kabi destruktiv jarayonlarning g'ayriaxloqiy sabablari va zararli oqibatlar natijasida sodir bo'layotgan degradatsion holatlarni oldini olishning jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi, sog'lom etosferani rivojlantirish kabi mexanizmlari ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va funksiyalari, uning evolutsion, transformatsion va innovatsion xususiyatga ega jarayon ekanligi nazariy, metodologik va amaliy xulosalarda umumlashtirilgan va aniqlashtirilgan;

o'zbek nikoh marosimlarining poklanish, forig'lanish singari axloqiy va estetik kategoriyalarning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishi, fuqarolik jamiyati talablariga ko'ra o'zbek nikoh marosimlari etnoestetik, sog'lom turmush tarzi estetikasi sifatida takomillashib borishi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot mavzusining aniq qo'yilganligi, natijalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya to'plamlari, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, nashr etilgan monografiya, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan nazariy xulosalardan oila va nikoh munosabatlariga doir ilmiy-tadqiqod ishlarida, xalqning urf-odat, an'analar bilan bog'liq ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda, nafosatshunoslik, axloqshunoslik, aksiologiya, etnomadaniyat kabi fanlarning ilmiy-nazariy ma'lumotlarini boyitishda, "Bo'lg'usi kelin-kuyovlar innovatsion maktabi" yoshlarini o'qitishda, Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy-amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion, fundamental loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ilgari surilgan taklif-tavsiyalardan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining hududlardagi bo'limlari faoliyatida, oilalarda axloqiy muhitni yaxshilash va sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda, viloyatlardagi mavjud milliy madaniyat markazlarida, mahallalar, ta'lim-tarbiya dargohlari, ijodiy uyushmalar o'z amaliy faoliyatlarida hamda mavzuga oid fanlarda qo'llaniladigan darslik va o'quv-metodik materiallarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati, jamiyat ma’naviy hayotida tutgan o‘rni, qadriyatlar transformatsiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy takliflar asosida:

o‘zbek xalqi nikoh marosimlari etnoestetik mohiyatining tadrijiy rivojlanishida informativ mezonning insonlar munosabatlariga kognitiv, integrativ, regulyativ va funksional ta’siriga doir xulosa va amaliy takliflardan OT-A1-98 raqamli O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi “Jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida estetik tarbiyani rivojlantirishning milliy asoslari” fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 4-iyuldagi 04/11-3960-son ma’lumotnomasi). Natijada, grand loyihasini yanada takomillashtirishga va fanlararo yondashuvning murakkab tizimlarini tadqiq etishda yosh mutaxassislar va olimlarning kasbiy malakasini egallashidagi nazariy-metodologik (uslubiy) ahamiyati, uning ilmiy projektiv (loyihalashtirish va prognozlashtirishda) va amaliy (texnologik jarayonlardagi) o‘rnini belgilashga xizmat qilgan;

o‘zbek nikoh marosimlarining turli davrlarda transformatsiyaga uchraganligi, ayrim an’analarni modernizatsiyalashgani, ba’zilari esa o‘zining ijtimoiy ahamiyatini to‘la yo‘qotgani hamda bu jarayonlarning zamonaviy mental oilaviy munosabatlarga ta’siri bilan bog‘liq taklif-tavsiyalardan 2021-yilda bajarilgan PZ-202005236 raqamli “Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish” innovatsion loyiha doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 15-iyuldagi 01-04/01-1326(1)-son ma’lumotnomasi). Natijada, grand loyihasini yanada takomillashtirishga va fanlararo yondashuvning murakkab tizimlarini tadqiq etishda yosh mutaxassislar va olimlarning kasbiy malakasini egallashidagi nazariy-metodologik (uslubiy) ahamiyati, uning ilmiy projektiv (loyihalashtirish va prognozlashtirishda) va amaliy (texnologik jarayonlardagi) o‘rnini belgilashga xizmat qilgan;

o‘zbek nikoh marosimlarining emotsional tomoshaviylik sifatleri jamiyat a’zolari o‘rtasida affilyativ motivlarni shakllantirishi hamda etnomadaniy va evdomanistik singari axloqiy-estetik mohiyati insonning ma’naviy-ruhiy forig‘lanishida pozitiv omil ekanligi hamda nikohni adaptatsiya potentsiali tuzilishini namoyon qiluvchi autoregulatsion, kommunikatsion, motivatsion, kompromiss qaror kabi substansional komponentlari oilani barqarorlashtiruvchi indikatorlar sifatida yoshlar aksiologik dunyoqarashi rivojlanishiga ta’siriga oid taklif-tavsiyalardan “Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot institutining “2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur”ni ijrosini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining “Oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish” bandini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzuridagi “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot

institutining 2022-yil 31-oktabrdagi 01-09/1122-son ma'lumotnomasi). Natijada oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va farovonlik darajasini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy asosi oshgan;

jamiyatda qonunga zid nikohdan tashqari, bir jinsli, LGBT, sadizm, mazoxizm, gipermaskulitlik, nimfomaniya, voyaga yetmaganlar nikohi kabi destruktiv jarayonlarning g'ayriaxloqiy sabablari va zararli oqibatlari natijasida sodir bo'layotgan degradatsion holatlarni oldini olishning jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi, sog'lom etosferani rivojlantirish kabi mexanizmlariga doir ilmiy, amaliy hamda metodologik g'oyalar, taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining "Samarqand" telekanalida 2022-yilda efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 2-iyuldagi 01-12/252-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining mohiyati, g'ayriaxloqiy ta'sirlar va ularning oldini olish mexanizmlarini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 219 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot obyekti va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari; xorijiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari – tadqiqot obyekti sifatida**" deb nomlangan birinchi bobida nikoh fenomeni, uning paydo bo'lish sabablari, mohiyati va xususiyatlari, "Avesto"da nikoh hamda oilaviy qadriyatlar, islom dinida nikoh qoidalari (xitba, Iyjob va qabul, mahr, sig'a), sharq va g'arb allomalarining nikoh munosabatlariga

oid fikrlari o'rganilib, falsafiy-axloqiy jihatdan tahlil qilingan.

Ushbu bobning **“Nikoh: axloqiy, diniy, ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi paragrafida “nikoh” tushunchasining strukturaviy semantik tahlili, nikoh turlari, tasnifi, diniy, axloqiy-estetik rivojlanish xususiyatlari, an'anaviy nikoh shakllari tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat paydo bo'lib, ko'payib, jamoaga birlashib shakllanishi davomida dastlabki erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni nikoh paydo bo'lishidan oldingi jinsiy munosabatlar biologik omillar asosida tartibga solingan.

Nikoh o'zining dastlabki davridayoq boshlang'ich promiskuitetdan rivojlanib chiqib, unda birinchi cheklanish yuz berdi, ya'ni katta avlod va yosh avlod nikoh munosabatlaridan chiqarib tashlangan edi. Nikoh munosabatlari evolyutsiyasidagi ikkinchi cheklanish bitta qabila, urug' ichidagi nikohning ta'qiqlanishi. Bunday nikoh turi ekzogamiya (yunon. exo – tashqari, gamos – nikoh) deb nomlanib, bugungi kunda ham keng tarqalgan. Nikohning bunday shakllanish jarayonida insonning balog'atga yetish bosqichi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Deyarli barcha xalqlarda balog'atga yetgan o'smirlarni sinovdan o'tkazish odati – initsiatsiya mavjud edi. Initsiatsiyaning asosiy maqsadi balog'atga yetgan o'smirlarni nikohga tayyorlashdan iborat.

Mutaxassislar fikricha, nikohning diniy va dunyoviy shakllari mavjud. Biz o'zbek xalqi nikoh munosabatlarini 3 shaklda: 1) dunyoviy, 2) diniy, 3) milliy tomondan tahlil qilib o'rganishimiz mumkin. Dunyoviy nikoh barcha davlatlarda majburiy belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, diniy nikoh ayrim diniy davlatlar va jamiyatlarda uchraydi. O'z qadriyatlariga sodiq xalqlar nikoh bilan bog'liq milliy urf-odatlarini ham bajaradilar. Bizning davlatimizda oila qurayotgan kelin-kuyov, albatta, dunyoviy nikohni amalga oshirishlari, davlat (FHDYO) idoralaridan ro'yxatdan o'tishlari shart. Nikohning diniy va milliy shakllari ixtiyoriy.

Shu ma'noda olib qaralganda: “Nikoh – ikki jins vakillarining o'zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq”dir<sup>1</sup>. Bu faqat jismoniy juftlashish emas, balki ma'naviy-ruhiy mushtaraklik hamdir. Insonning boshqa jonzotlardan farqli jihati ham ana shu bilan bog'liq. Nikoh ijtimoiy hodisa bo'lganligi uchun guvohlar ishtirokida amalga oshiriladi. Sababi, jamoatchilikka ikki jins vakilining oila qurayotganligini oshkor qilish hisoblanadi.

Bobning **“Sharq va g'arb falsafiy tafakkuri taraqqiyotida nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida oila mustahkamligi va uning shaxs farovonligidagi o'rni, ijtimoiy hayotda erkak va ayolning nikohdan o'tib baxtli hayot kechirishi bilan bog'liq axloqiy-estetik qarashlar tahlil etilgan. Sharq falsafasida nikoh fenomeni ko'pincha transsendental, spiritualistik talqin qilinadi. Shu bilan birga unda baxt, zavq, lazzat olish kabi erotologik nuqtayi nazardan yoritish ham uchraydi. Sharq evdemoniyasiga ko'ra, erotik mashg'ulotlar fahsh, hayvoniy shahvatga berilish emas, balki muvofiq jinslarning uchrashuvdan, birga bo'lishidan zavq olib yashashi, tabiat in'om etgan

---

<sup>1</sup>“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т., 2003. 6-жилд. –Б. 355.

go‘zallikdan bahramand bo‘lishidir. Insonning o‘zini baxtli sezishi, oilaviy hayotini mukammal ko‘rishi ushbu omillarga bog‘liqdir.

Abu Rayhon Beruniy “Hindiston” asarida yozadi: “Biror xalq nikohsiz yashashining iloji yo‘q, chunki nikoh ong uchun yaramas, jirkanch bo‘lgan shahvoniyat avj olishining oldini oladi. Juft bo‘lib yashovchi hayvonlar hayotini kuzatgan har bir kimsa, har bir erkak hayvon o‘z urg‘ochisi bilan qanoatlangani, boshqa hayvonlar ularni o‘z hollaricha tinch qoldirganini ko‘rgan odam nikoh zarurat ekanini anglab yetadi. Insonlardagi tartibsiz jinsiy aloqa hayvonlikdan ham tuban bo‘lgan yaramaslikdir”.

I.Kant nikohni axloqiy imperativ bilan bog‘laydi. Uning yozishicha: “Nikoh subyektiv sharoit sifatida o‘zini “oxirgi maqsad”, obyektiv sharoitda “axloqiylik qonunlari bilan kelishgan tarzda baxtiyor yashash”, - deb ta‘rif beradi. Gegel esa o‘ziga xos spekulyativ, idealistik tarzda nikohni “mavhum, umumiy” bilan bog‘laydi va oxir natijada uni “oila”, “kichik davlat” deb ataydi. Shu bilan birga Gegel: “Insonda axloqiy talablar mavjud, agar ushbu talablarni tashqi muhit qoniqtirmasa, u o‘zini baxtsiz sezadi, u o‘zini o‘zidan olib, baxtni o‘zining ichidan qidiradi”, - deb ko‘rsatadi. Demak, insonning baxtni subyektivdan qidirishi, uni tashqi dunyodan topolmasligi natijasidir.

A.Fitratning ta‘kidlashicha: “Nikoh – bu hayotda do‘st, baxt va baxtsizlikda sherik, g‘am-qayg‘u vaqtida hamdam, xushnud damlarda bir-birlariga yor bo‘lishni istagan erkak va ayolning shaxsiy va ijtimoiy vazifalarini birgalikda bajarishlari lozim bo‘lgan ittifoqdir”<sup>1</sup>. Nikoh – er-xotin o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro xohish asosida tuzilgan ahd-u paymon bitimidir, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo‘lish demakdir. Shu bilan birgalikda, nikoh jamiyat tomonidan tasdiqlangan nasl va jinslar o‘rtasidagi munosabatlar shaklini o‘zida ifoda etadi, ya‘ni jinsiy aloqa va nasl qoldirishni tartiblashtiradi.

Sharq ma‘naviy-axloqiy imperativida nikoh inson zotining, millat va xalqning mavjudlik sharti sifatida qaraladi. Nikoh hayotning, tiriklikning, umrboqiylikning boshidir, hech bir xalq, millat nikoh munosabatlarini yo‘lga qo‘ymay, oilani “muqaddas birlik”ka, ideal uyg‘unlikka aylantirmay o‘zini saqlab qololgan emas. Oilani ulug‘lagan xalq-millat, o‘zini ulug‘lagan xalq millatdir. “Nikoh, - deb yozadi N.A.Berdyayev, - farovon hayotni ta‘minlashning dunyoviy instituti, insoniyat hayotini biologik va sotsiologik tartibga solish vositasi bo‘lib kelgan, bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi... Nikoh erkdan hamda zaruriyatdan tug‘ilgan”. Faylasufning fikriga ko‘ra, nikoh ilohiydir, u o‘zini hayvoniy shahvatni farzandlar tug‘ish orqali ham ma‘naviy, ham ijtimoiy oqlashdir.

Ushbu bobning “**Nikoh marosimlari mohiyatining islomiy qadriyatlarda ifodalanishi**” deb nomlangan uchinchi paragrafida nikohning er-xotin o‘rtasini bog‘lovchi bitim ekanligi, qolaversa erkak va ayol borlig‘ini mehr-muhabbat rishtasi bilan bog‘lovchi, zurriyot qoldirishga hamda buzuqlikdan saqlovchi ilohiy ahd ekanligi diniy manbalar asosida tahlil qilingan. Diniy nikoh munosabatlar o‘zbek xalqi milliy nikoh marosimlari bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib go‘zal

---

<sup>1</sup> Эргашева М. Фитрат меросида никоҳ ва оила масалалари // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2003. – № 4. – Б. 28.

axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi. Diniy qadriyatlar – ma’lum diniy manbalarga mos keladigan, e’tiqod qiluvchilar tomonidan so‘zsiz bajariladigan, o‘zgarmas xarakterga ega munosabatlar jamuljami hisoblanadi. Alloh erkak va ayolni jinsiy mayl istagida bir-biriga intilib yashashini, nikohdan o‘tib shahvatini qondirishini xohlabdiki, insoniyat kelajagi davom etib kelmoqda. Juftlashish, nikohdan o‘tib halol umr kechirish oliy aql sohiblariga xosdir. Agar jinsiy mayl bo‘lmaganda edi, erkak va ayollarning nikohdan o‘tishlariga zarurat qolmasdi. Nikoh tushunchasi ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, qo‘shilish degan ma’noni anglatadi. Nikoh islom ta’limotida erkak va ayolning oila qurishning shartlari, qoidalarini shariat ko‘rsatmalari, talablari asosida amalga oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Islom tarixida shariat dasturlarining shakllanishi va ularning hayotga tatbiq qilinishi musulmon mamlakatlari va xalqlari tarixida ijtimoiy va shaxsiy hayotni tartibga soluvchi, yo‘naltiruvchi muhim manba bo‘ldi.

Islom dini nikoh munosabatlari mohiyatida iffat va saqlanish me’yorlari mujassam. Uylanish musulmonlar uchun nafsni haromdan tiyish vositasi sifatida qarab kelinmoqda. E’tibor qaratish lozimki, Islom dinida balog‘at yoshiga yetgan har bir yigit-qiz nikohga chaqirilgan.

Islom qoidalariga muvofiq, nikoh asosida insonga uchta yaxshilik ko‘rsatiladi. Birinchisi, bir umrlik jufti-haloliga ega bo‘ladi. Insonning jufti – bu uning yarmi hisoblanadi. Juftsiz inson butun bo‘lmaydi. Ikkinchidan, xotirjamlik, nafs rohati va baxtli turmush hayoti soyasida topadigan inoqlik va sokinlikdir. Uchinchidan, er-xotin bir-biri uchun xuddi badanning ayblarini yashirib, uni issiq-sovuqdan asrab, harorat bag‘ishlab turadigan libos kabidirlar. Bular asosida inson baxt hissini tuyadilar. Jamiyat orasida doimo hurmatda bo‘ladilar.

Islom huquqiga ko‘ra nikohning haqiqiyliigi – quyidagi to‘rt shartning uyg‘unligi, chunonchi:

- 1) bevosita monelik qiluvchi holatlarning yo‘qligi;
- 2) muayyan shaxslarning roziligi;
- 3) mahrning belgilanishi;
- 4) rasmiy qoidalarga rioya etilishi bilan belgilanadi.

Nikohning birinchi bosqichi - kelishish, unashtirish (xitba) bo‘lib, unda kuyov o‘zi yoki vakili orqali kelinning otasi, vasiysi yoxud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va nikoh shartnomasi (sig‘a)ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi.

Islom manbalarida keltiriladiki, nikohning erkak va ayol uchun asosiy foydali tomoni zinoga botmaslik va farzandlarni dunyoga keltirishdir. Nikoh asosida bashariyat nasli dunyoni to‘ldirib kelmoqda. Shahvat esa farzandni dunyoga kelishi sababidir. Agar insonning shahvati qo‘zg‘asa, uni na aql, na din bu yo‘ldan qaytarolmaydi. Shu sabab payg‘ambarimiz, kimki nikohdan o‘tishga imkoni bo‘lmasa, ro‘za tutishini buyurganlar. Toki oilalali bo‘lgunlaricha gunohga botmasliklari uchun. Zino shaytonning qurolidir. Nikohsiz yigit va qizlarni bir-

birlariga shahvatini qo'zg'ab, yo'ldan ozdiradi. Bordi-yu diyonatli yigit-qizlar iblis izmida yurmas ekanlar, ularga munofiq insonlarni yaqin qilib qo'yadi.

Nikoh erkak va ayolni bir-birlariga yaqinlashtirib, hazillashish, o'ynash, muammolarini aytib yengillashish, birga o'tirib rohatlanish vazifasini ham bajaradi. Inson doimo lazzat bilan rohatlanib tursa, stresslardan qutulib, faoliyatida unumdorlik oshadi. Jufti bilan yaqin muomalada bo'lish qalbni rohatlantirib, o'jarlikni kamaytiradi. Ikki sevishgan qalb uchun ham nikohdan boshqa najot yo'qdir islom shariatiga binoan. Nikohdagi xursandchilik go'zal va sog'lom turmush kechirishga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Oila-nikoh munosabatlarining axloqiy va estetik kategoriyalarda ifodalanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida nikoh bilan bog'liq urf-odatlar, udumlar va marosimlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati hamda axloqiy-estetik mohiyati falsafiy tahlil qilingan.

Bobning **“Nikoh munosabatlarining axloqiy kategoriyalarda aks etishi”** deb nomlangan birinchi paragrafida o'zbek xalqi nikoh marosimlarining ontologik asosi axloqiy kategoriyalarda o'rganiladi. O'zbek xalqi nikoh marosimlarining mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda asrlar davomida shakllangan sevgi-muhabbat, baxt, hayotning ma'nosi, burch, adolat, mas'uliyat, or-nomus, vafo, sharm-hayo kabi axloqiy me'yorlar, tamoyillarning guvohi bo'lamiz. Shundan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, sharqda, xususan, o'zbek xalqida nikohning axloqiy jihati ustuvor hisoblangan. Oilaning asosi hisoblanmish nikohning zamirida sevgi-muhabbat va burch kabi axloqiy kategoriyalar o'zining ifodasini topgan. Axloqiylik mezonlari asosida tashkil topgan nikohda tomonlarning bir-biriga ishonchi va kelin-kuyovning sevgi-muhabbati yetakchilik qiladi. Bunda tomonlarning ixtiyoriy roziligi, ham milliy, ham diniy qadriyatlarimizga mos kelib, nikohdan qoniqish kayfiyatini shakllantiradi.

Muhabbat bu axloqning bosh mezoniy tushunchasi hisoblanib, nikohda o'z “hissa”siga ega bo'ladi. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: “Juda ko'p irfoniy tushuncha-istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi”<sup>1</sup>, - der ekan, ayni haqiqatni aytadi. Ijtimoiy hayotdagi axloqiy munosabatlarning barchasini: jumladan, vatanparvarlikni, insonparvarlikni, nikohni muhabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Muhabbat – inson substansiyasini erkin tarzda namoyon bo'lishidir, u zo'ravonlik yoki zo'rma-zo'rakilik bilan chiqisha olmaydigan fenomen. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u - insonni tashqi va transsendental olam bilan bog'laydigan, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch.

Burch – nikohga kirayotgan yoshlar zimmasiga mas'uliyat hamda vazifa belgilovchi irodaviy tuyg'u hisoblanadi. Burch kelin va kuyovda insoniy sifatlarni jamuljam qilishi bilan birgalikda, ijtimoiy hayotda o'z-o'zini anglash hamda faoliyatini tahlil qilish tuyg'ularini shakllantiradi. Nikoh bu shunday ilohiy va ijtimoiy ahdk, nikohlanayotgan kelin-kuyovlarning zimmasiga bir qator burch

---

<sup>1</sup> Комилов Н. Тасаввуф. I китоб. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1996. -48 б.

hamda mas'uliyat yuklaydi. Muammolarni mustaqil hal qilish, oila a'zolari bilan maslahatlashib, kengashish, vazifalarni o'z zimmasiga olish kabi sifatlarni shakllantiradi.

O'zbek xalqi nikoh marosimlarining ontologik mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kelin-kuyovni axloqiy yetukligini tavsiflash, bir-birlariga mos ekanligini ta'kidlab, o'rtalarida doimo adolat hukmron bo'lishini guvohi bo'lamiz. Adolat – axloqiy kategoriya sifatida kelin-kuyov orasidagi munosabatlarni, ular o'rtasidagi aloqalar mezonini o'z ichiga oladigan kvitansiyadir. Nikohning odilligini yoshlarimiz unutmasliklari lozim. Nikoh tuzilishi va uning davomida kelin-kuyov odil bo'lishligi, bir-biriga zulm va yomonliklardan saqlanishi, nohaqlik qilmasliklari lozim. Nikoh marosimlari o'tkazilayotgan vaqtda uvali-juvali, yoshi ulug' yangalar kelin-kuyovning kamoloti, odilligini alqab, uning aksi yomonlik va kamchilik-qusurlardan xoli bo'lishligini ta'kidlaydilar. Bu o'z navbatida yangi hayot ostonasida turgan yoshlarning bir umrlik xotiralarida muhrlanib qoladi.

Shu asnoda yoshlarimizni oilaga tayyorlashda, ularning qalbida nikohning ilohiyligiga nisbatan tuyg'uni shakllantirish uchun barcha ma'naviy-mafkuraviy va ilmiy manbaalar yetarli. O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining mohiyatiga ko'ra turmushga chiqayotgan bo'lg'usi yosh kelinlarimiz quyidagi axloqiy fazilatlarga ega bo'lishlari lozim: nazokatli va xushmuomalada bo'lishi, o'z-o'zini anglab hurmat qilishi, turmush o'rtog'i va oila kattalari so'zlariga itoatda bo'lishi, oilasi va turmush o'rtog'ining sirlarini saqlay olishi, doimo shirin kalomda bo'lishi, yorining qurbi yetmagan narsalarni olib berishini talab qilmaslik, mahmadonalik qilib qizlik oilasidagi sharoitni maqtamaslik, turmush o'rtog'ining oilasiga doimo hurmatda bo'lishi. Turmush qurayotgan yosh yigitlarimiz ham farosatlilik, xushmuomalalik, xushfe'llik va xushso'zlik kabi axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Nikoh marosimlarida estetik kategoriyalarning namoyon bo'lish xususiyatlari”** deb nomlangan. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib, turli siyosiy to'fonlardan omon qolib, milliylik tug'yonlarini saqlab kelayotgan boy estetik tarbiyasi oila degan muqaddas maskanning mahsulidir. Uning yoshlar estetik madaniyatida yorqin ifodalanishi ma'naviyat va mafkuraning uyg'unligini ta'minlaydi.

Erkak va ayolning bir-biriga intilishi tabiiy hodisa bo'lib, bu munosabat bevosita oilaning asosini tashkil etadi. Boshqa qavmdan, xalqdan qiz olib kelish (nikoh) marosimi tantana sifatida nishonlangan, chunki qavmga, xalqqa yangi kuch, farzandlar tug'ib beradigan inson kelib qo'shilgani qadrlangan. Insoniyat mavjudligining mazkur falsafiy asosi o'zini-o'zi asrash, ko'paytirish instinktidan o'sib chiqqan deyish mumkin. Bugun bu instinkt anglangan va ratsional tashkil etiladigan, boshqariladigan, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar in'ikosiga aylangan.

Jamiyat erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy-biologik munosabatning qay tarzda ro'y berishiga befarq qarab turolmaydi. Chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarni saqlash va rivojlantirish, jamiyat a'zolarining o'zaro munosabati madaniyatining takomillashuvi, kamoloti jamiyatning asosidir. Shuning uchun ham har bir jamiyatda erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy-biologik munosabatlar betartib, stixiyali

ro‘y bermay, nikoh asosida milliy, diniy va huquqiy mezonlar asosida tartibga solinadi.

Nikohda estetik munosabatlar, eng avvalo, erkak va ayolning o‘zaro sevgi-muhabbatiga asoslanib, bir-birining ma’naviy va jismoniy go‘zalligini idrok qila bilishi va undan zavqlana olishi, otalik, onalik vazifalarini anglay bilishi hamda ushbu sharaflari mas’uliyatni qadrlay olishini ifodalaydi.

Gozmanning fikricha, juftlik munosabatlarida attraksiyaga turtki bo‘luvchi eng muhimi omil – bu juftning tashqi go‘zalligi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya’ni inson idealiga mos bo‘lgan xususiyatlarning bir qanchasini o‘zida mujassamlashtirgan juftni bir ko‘rishda yoqtirib qolish, uning husniga maftun bo‘lish attraksiyaning dastlabki bosqichi bo‘lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid’atga, ya’ni chiroyli odam aqlli va ahloqli bo‘lishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo‘llanilishi isbotlangan.

Nikohga kirishishda ijtimoiy-demografik xususiyatlar ham sabab bo‘ladi. Bular juftning ijtimoiy maqomi, jamiyatda tutgan o‘rni, kasb-kori, ma’lumoti, darajasi, millati va diniy e’tiqodi, moddiy ta’minlanganligi kabilardir. Ko‘pincha, ayni shu belgilar, yoki xususiyatlar bilan yaqin bo‘lgan insonlar o‘zaro bir-birlariga tezroq yoqib qoladilar, chunki o‘xshash belgilar yoki ko‘ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma’noda uyg‘unlashishiga zamin yaratadi.

“Kama” – lazzatlanish, zavq olish ma’nolarini anglatadi. Kishining baxt haqidagi tasavvurlari, avvalo, hayotdan, yon-atrofdan, voqealardan lazzat, zavq olishi bilan bog‘liqdir. Hamma narsa ham unga zavq, lazzat baxsh etavermaydi, shu sababli ular nikohdagi mos juftlik lazzatini noyob narsa ekanini e’tirof etadi. Erotika erkak va ayolning bir-biridan zavq, lazzat oladigan noyob ma’naviy-ruhiy va fiziologik hodisadir. “Kamasutra” ushbu noyob psixofiziologik hodisani baxtli onlar manbayiga aylantirish, ushbu onlarni iloji boricha uzoq va muntazam bo‘lishiga erishish yo‘llarini, usullarini o‘rgatadi<sup>1</sup>. Demak, nikohda baxtli bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, muntazam ro‘y beradigan hodisaga aylantirish mumkin.

Bobning **“Oila mustahkamligida nikohning ahamiyati va marosimlarning axloqiy-estetik mohiyati”** deb nomlangan uchinchi paragrafida nikoh marosimlarining geometrik tuzilishi va unda ishlatiladigan so‘zlar ma’nolari o‘rtasidagi tengsiz uyg‘unlik, tartib va semantik bog‘liqlik hamda oila mustahkamligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Xalqimizning ma’naviy-iqtisodiy hayotida alohida o‘rin tutuvchi nikoh munosabatlari ijtimoiy ahamiyatga molik hodisadir. Qadimdan shakllanib bizgacha yetib kelgan nikoh marosimlari ajdodlarimizdan qolgan bebaho madaniy-ma’naviy qadriyat bo‘lib, u tiriklik shukronasi, orziqib kutilgan ezgu tilaklar, shod-u xurramlikning ramziy ifodasidir.

Etiketga aylangan o‘zbek xalqi nikoh marosimlari barchaga xush kayfiyat bag‘ishlaydi. Kiyimlar va harakatlardagi go‘zallik kuzatuvchilarda yoqimli taassurot uyg‘otadi. Biz nikoh munosabatlarining boshidan oxirigacha milliy,

---

<sup>1</sup> Камасутра. – Минск: Современный литератор, 2009. – 267 с.

o'lmis qadriyatlarimizning guvohi bo'lamiz. Insonda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradigan go'zal odatlarimizning mohiyatida me'yorilik mavjuddir. Agar har bir harakat va munosabatda me'yor buzilsa, xunuklikka aylanadi. Hududimizda shakllanib, vaqtlar o'tishi bilan transformatsiyaga uchrab, go'zal qadriyatga aylangan o'zbek xalqi nikoh munosabatlarida me'yor, uyg'unlik, yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik tamoyillari mavjuddir. Masalan, sovchilik marosimida kuyov tomondan borgan vakillarning aytilishi lozim bo'lgan aksiologik jumladan tortib, yor-yor-u kelin salomda yangalar tomonidan ishlatiladigan gaplar mazmunida yuqoridagi tamoyillarni uchratamiz.

Har bir davr kishilariga xos ma'naviy va ma'daniy hayot tarzining darajasi ularning nikoh marosimlariga bo'lgan munosabati bilan izohlanadi. Binobarin, muayyan xalq yoki hududda yashovchi aholining nikoh marosimlarini davriylikda o'rganish madaniy evrilishlar hamda urf-odatlar transformatsiyasini, shu bilan zamonaviy va makoniy o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, nikoh marosimlari o'zining genezisi bilan, qadimgi ajdodlarimizning jins-yosh jihatidan o'tkazilgan ritual magik (sehr-jodu), initsiatsiya (sirli voqea bo'lish) marosimlaridan iborat.

Nikohning yana bir oila mustahkamligidagi ahamiyati: bu yoshlarni yangi hayotga adaptatsiya qildirishdir. Bu, avvalo, oilaga, mahallaga va qarindoshlar ichida avlodning davomchilarini dunyoga keltirish singari uzluksizlikni yaratishdan iborat. Nikoh marosimlari yoshlarni, birinchi navbatda, oila degan jamiyat yacheykasiga birlashtiradi, oilaviy munosabatlarni psixologik, etnomadaniy jihatlariga e'tibor berishga majbur qiladi. O'zidan keyingi naslni qoldirishni o'ylaydi va farovon, baxtli hayot sari qadam tashlaydi.

Nikoh insonning baxtli hayotni tuyishi, his qilishi va shu tufayli yangi hayotni boshlashidir. Nikoh tufayli erkak o'zining jinsiy maylini qondirish, umr yo'ldoshini topish, o'z avlodining davomchisi bilan turmush qurish va asosiysi oilani boshqarish singari yutuqlarga ega bo'ladi. Ayol ham o'zining baxtli onlarini o'z jufti haloli orqali ko'radi. Poklanish, qoniqish (jinsiy, ijtimoiy), himoya qobig'iga ega bo'lish singari baxt tushunchalariga ega bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda milliy nikoh munosabatlarning axloqiy-estetik mohiyatini saqlash muammolari”** deb nomlangan uchinchi bobi uch qismdan iborat. **“Yangi O'zbekiston ma'naviy qiyofasi rivojida milliy nikoh munosabatlarning axloqiy-estetik mohiyati”** deb nomlangan birinchi paragrafda Yangi O'zbekistonda nikoh marosimlarining axloqiy-estetik jozibadorligini saqlash, tarbiyaviy mohiyatini tarannum etish, an'anaviylik va zamonaviylik jihatlarini uyg'unlashtirish vazifalari o'rganilgan. Nikoh marosimlari rivojlanish tendensiyasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratilib, bu tizimda yuqorida ishlab chiqilgan mezonlarning qay darajada amal qilayotgani tadqiq etilgan.

Har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g'oyasini ifoda etadi. Ana shu g'oya

asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas.

O‘zbek nikoh marosimlarining axloqiy mohiyati yosh avlod qalbida nafis did hamda yuksak fazilatlarni shakllantirish, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aholi orasida nikoh marosimlarini, urf-odatlar rang-barangligini saqlab qolish va to‘yning sarf-xarajatlarini ixchamlashtirish borasida me‘yor, vaqt bo‘yicha mezonlar ishlab chiqilishi, qat‘iy reglamentlar o‘rnatilishi, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish nikohning axloqiylikini saqlab qolishga obyektiv asos bo‘ladi. O‘zbek milliy nikoh marosimlarining o‘ziga xos taomillar bilan bog‘liq madaniyatning o‘zgarishi, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, diniy va boshqa omillar ta‘sirida transformatsiyaga uchrashi, shakllanish hamda rivojlanish davrlarida milliy nikoh marosimlarining arxitektonikasini vujudga keltirgan. Aynan urf-odatlar tizimining transformatsiyasi qo‘shni etnoslardan turli taomillarning kirib kelishi va ularning milliy urf-odatlar tizimiga qo‘shilishi darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Innovatsiyalarni qabul qilishdagi tolerantlik nafaqat rasm-rusumlar yoki taomil qabul qilingan, balki etnosning o‘zbeklarga madaniy yaqinligiga, ularning muayyan ijtimoiy qatlarga dahldorlik hissiga ham bog‘liq bo‘lgan.

Bobning **“Yangi O‘zbekistonda milliy nikoh marosimlarini axloqiy-estetik qadriyatga aylantirish vazifalari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafda hozirgi davrda o‘zbek nikoh marosimlarida shakllanayotgan yangi ijtimoiy, etnoestetik va tashkiliy xususiyatlar hamda yangi udumlar, ularning nikoh marosimlari an‘anasiga mosligi va farqli tomonlari tahlil qilingan. Yurtimizning har bir hududida o‘ziga xos go‘zal urf-odatlarining axloqiy va estetik xususiyatlari nikoh marosimlarini yanada boyitib, o‘zida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan. Erix Frommning fikricha, “... avvalo, XX asrda “muhabbatga munosib” siymoni topishga munosabat keskin o‘zgardi. Viktorian davrida, muayyan tamoyillarga sodiq boshqa qator tamaddunlarda bo‘lganidek, keyinchalik nikohga olib keladigan muhabbat bevosita shaxsiy kechinma bo‘lmagan. Aksincha, yigit va qiz bitishuv asosida nikohlangan yoki biror-bir nufuzli oilalar, yoxud sovchi vositachiligida yoki vositalarsiz nikohlangan. Yigit-qizlar ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda nikohdan o‘tishgan. Muhabbat esa nikohdan keyin tug‘ilib, kuchayib boraveradi”<sup>1</sup>, degan aqida hukmronlik qilgan.

Biz yuqoridagi paragraflardagi tahlillarda nikoh marosimlari va uning asosiy tarkibiy qismi to‘y haqida alohida xulosalarimizni keltirib o‘tdik. Nikoh to‘ylari oila qurishga yo‘l va ungacha bo‘lgan xursandchilik belgisi sanaladi. O‘zbek nikoh marosimlari orasida to‘y alohida o‘rin egallab kelgan. Doimo to‘ylardagi zamonaviylik va an‘anaviylik uyg‘un holda madaniyatning rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazib kelgan. Qadimdan nikoh marosimlari orasida to‘yning nisbatan axloqiy, etnopsixologik omillari ustuvorligi kuzatilgan. Nikoh marosimlari tarixiy davrlar almashinuvi natijasida turli zamonaviy ko‘rinishlarni qabul qilgan, ba‘zan esa majburan yoki ixtiyoriy tarzda turli udumlar, yot odatlarni ham qabul qilgan.

---

<sup>1</sup> Блез Паскаль, Хосе Ортега де Гассет, Эрих Фромм. Севги санъати. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011. – 125 б.

Xususan, sho‘rolar davrida milliy qadriyatlarning sofliğini buzish, ma’naviyatini axloqiy aynish holatiga keltirish natijasida turli nomilliy urflar ham shakllangan. Nikoh to‘ylarining ko‘pchiligi mazkur rejalarini amalga oshirish uchun juda ham qulay va samarali tizimga aylangan edi.

Nikoh marosimlari millatning, xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy-ruhiy, milliy-madaniy ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yuzaga kelgani bois, hech bir a’zosini befarq qoldirmaydi. An’anaviy qadriyatlarning umrboqiyliigi, mustaqillik davrida millatimiz, xalqimiz yoshlarida tarixiy-madaniy merosga, xalq bayramlari, tomoshalari va dam olish an’analariga qiziqish oshganligining negizi ham shundandir.

Bobning uchinchi paragrafi **“O‘zbek nikoh munosabatlari institutsional tizimi evolutsiyasining falsafiy-huquqiy tahlili”** deb nomlanadi. Nikoh bu ikki inson o‘rtasidagi ijtimoiy yoki diniy tan olingan birlashma bo‘lib, ular o‘rtasida huquq va majburiyatlarni o‘rnatadi. O‘zbek nikoh munosabatlari qadimdan urf-odat, an’analar tarzida shakllanib, turli ijtimoiy, iqtisodiy, diniy ta’sirlar natijasida o‘zgarib kelmoqda Necha ming yillar davomida nikoh ijtimoiy me’yorlar bilan tartibga solinib, jamiyat a’zolari, mahalla-ko‘y nazorati ostida o‘tkazilgan. Davlat boshqaruv tizimi shakllanishining dastlabki bosqichlarida nikoh bilan bog‘liq er-xotinlik munosabatlariga deyarli aralashmagan. Turkiy xalqlar orasida zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va ijtimoiy munosabatlar “Avesto”da belgilangan qoidalar asosida tartibga solinishi bilan nikoh-oila an’analarida ham maxsus ko‘rsatmalar o‘rnatildi.

O‘zbek xalqi nikoh munosabatlarining institutsionallashuvigacha bo‘lgan davr uzoq tarixga ega. 1917-yilga qadar O‘zbekistondagi mahalliy xalqning nikoh munosabatlari islom dini qoidalari asosida tartibga solingan. Bu vaqtgacha oilaviy munosabatlar sinfiy tengsizlik, xotindan er huquqining yuqori bo‘lishi, oila a’zolari ustidan otaning hukmronlik qilishi asosiga qurilgan edi. Faqatgina oktyabr davlat to‘ntarishini sodir etgan ishchilar sinfi to‘ntarishning ilk kunlaridanoq sotsialistik asosdagi nikoh va oila qonunchiligi masalasida ma’lum o‘zgarishlar qilishga kirishdi.

1917-yil dekabr oyida sovet hukumatining ikkita dekreti e’lon qilindi. Bular “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish” va “Nikohdan ajralish to‘g‘risida” gi dekretlardir. Bularda sovet davlatidagi nikoh va oila tamoyillari ifodalaniib, keyinchalik uncha o‘zgartirilmay, amaldagi huquqda to‘la ifodasini topdi. Sovet davlatining nikoh va oila to‘g‘risidagi dastlabki dekretlarida go‘yo sovet fuqarolari, millati, irqi va dinga munosabatidan qat’i nazar, qonun oldida teng huquqliligi o‘rnatilib, keyingi qonunlar bu prinsipning buzilmay amalga oshirilishini ta’minlagan.

Bu qonunlarda ko‘proq Yevropa xalqlari turmush tarzi hisobga olingan bo‘lib, Sharq xalqlari turmushining o‘ziga xos jihatlari, sharqona oila tutish qoidalari aslo e’tiborga olinmagan. Biroq ular ittifoqdosh respublikalar qonunshunoslari tomonidan ko‘r-ko‘rona qabul qilinib, sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining o‘ziga xos nikoh-oila turmush masalalariga tatbiq etilaveradi. Markazda qabul qilinadigan qarorlarda mahalliy xususiyatlar e’tiborga olinmasdi. Xususan, o‘zbek xotin-qizlarining uzoq asrlar davomida muayyan urf-odatlar va islom dini

mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeyini, ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida favqulodda va shiddat bilan o'zgartirishga urinishlari jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga va qurbonlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, "Hujum" harakati jarayonida zo'rvonliklar kuchaydi. Sho'rolar hukumatining tub aholining asrlar davomida shakllangan va tadrijiy rivojlanib kelgan nikoh-oila munosabatlariga qo'pol ravishda aralashuvi kuchaydi. Markazda bu masalada O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti va yana boshqa xususiyatlari hisobga olinmagan holda qabul qilingan qarorlari aholi o'rtasida noroziliklar keltirib chiqardi.

1924-yilda sho'rolar hukumati milliy-hududiy chegaranishni o'tkazgandan so'ng ham O'zbekistondagi vaziyat og'irligicha qolaverdi. Bu vaqtda avj oldirilgan industrilashtirish siyosati qishloq hisobiga amalga oshirila boshlandi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi pasaytirilishi natijasida dehqonlar yanada qashshoqlashib ketdi. Qishloqdagi yoshlar ham o'z oilalarini tashlab, yangi qurilayotgan shaharlarga yo'l oldilar. Yangi sharoitlarda ularning dunyoqarashi, shu jumladan, nikoh munosabatlariga qarashlarida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. O'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab mahalliy millatga mansub qizlar, xususan, o'zbek qizlarining yigitlarga qaraganda kamaya boshlagani ham nikoh munosabatlariga o'z tasirini ko'rsatdi.

Bu yillarda tub aholi o'rtasida qizlarni 14-15 yoshida turmushga chiqarish keng rusum bo'lgani sababli, yigitlarning o'z millatidagi qizlarga uylanishi ancha qiyinlashib qolgan edi. Sho'rolar iqtisodiy siyosati oqibatida ko'plab o'zbek oilalarining nochor ahvolga tushib qolgani ularga milliy urf-odatlar asosida to'y qilishlariga imkon bermasdi. Bu o'zbeklarning boshqa millat vakillari bilan oila qurishlariga ham sabab bo'ldi. Buni XX asrning 30-yillarida O'zbekistonda tub aholiga mansub yigitlar qayd etgan barcha nikohlarining 12 foizi tatar ayollari bilan rasmiylashtirilganligi ham ko'rsatib turibdi. Natijada O'zbekistonda 1935-1959-yillarda respublika aholisi tarkibida tatarlar, o'zbeklar, tojiklar va ruslardan keyin to'rtinchi o'ringa chiqdi.

Sho'rolar davrida taqiqlarga qaramasdan O'zbekistonda qizlarning erta turmushga chiqish an'anasi saqlanib qolgan. Ittifoqda XX asr o'rtalaridayoq yoshlar hamda o'rta avlodga taalluqlilar bir qismining avvalgi nikoh an'analari va qoidalaridan chetlasha boshlashlari kuzatildi. O'zbekistonda nikohlar soni kamayishi va ajralishlarning ko'payishi bir tomondan, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi salbiy holatlar, ikkinchi tomondan, turmush qurganlarning milliy, diniy talab-qoidalarga to'liq amal qilmay qo'yganliklari, ota-onalarda farzandlar uchun mas'uliyat hissi bo'shashgani bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **"Nikoh munosabatlarining transformatsiyasi hamda axloqiy-estetik mohiyatiga ta'sir etuvchi omillar"** deb nomlangan to'rtinchi bobi to'rt qismdan iborat bo'lib, mazkur bobda asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyatidagi o'zgarishlar, marosimlarning transformatsiyasi falsafiy tahlil qilingan. Globalashuv sharoitida oila-nikoh munosabatlarining yemirilishi, uning

g'ayriaxloqiy sabab va oqibatlarini, jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati ilmiylik bilan tadqiq etilgan.

Bobning **“Jamiyat taraqqiyotida oila-nikoh munosabatlari transformatsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida o'zbek xalqi oila-nikoh munosabatlari transformatsiyasi sabab va oqibatlarini tahlil qilish, mazmun-mohiyatini aniqlashdan iboratdir.

Nikoh munosabatlari transformatsiyasi – bu odatlar va marosimlarining o'zgarishi, boshqacha mohiyat kasb etishi, ba'zilarining yangidan yoki qayta hosil bo'lishidir. Ushbu termin birinchi marta genetika sohasida ingliz olimi F.Griffit tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Vaqt o'tgani sayin har bir xalq madaniyati o'zgarib zamonga moslashib boradi. Bu o'zgarishlar aksariyat hollarda ijobiylik kasb etadi. Insoniyat dunyoqarashiga mos holatda eskirgan udumlar o'z o'rnini yangilariga bo'shatib, transformatsiyalashib boradi. Lekin milliylikni o'zida mujassamlashtirgan qadriyatlar o'rniga biz uchun yot bo'lgan, millatni o'zligidan ayiradigan odatlarning kirib kelishi har bir millatparvar insonni tashvishga soladi.

Misol uchun, nikoh to'yi kuni kelinlar kiyadigan oq ko'ylakning tarixiga va xalqimiz hayotiga kirib kelish davriga e'tibor qaratsak, sovet mustamlakasi davrida asl g'arbona madaniyatning hududimizga kirib kelishini ko'ramiz. G'arbona nikoh to'ylarida kelinning bor chiroy, jozibadorligini ko'rsatish, hammadan alohida ajralib turishini, uning ayollik belgilarini ko'z-ko'z qilib erkak va ayollarning havasini keltirib, yodida qolishiga katta e'tibor qaratiladi.

Umuman, chetdan kirib kelayotgan yoki g'arbona qarashlar natijasi o'laroq o'zimizda paydo bo'layotgan va keng tus olayotgan axloqqa zid bo'lgan xatti-harakatlarning barchasi, ya'ni dabdabali to'ylar qilish ayollarning to'ydan avvalgi va keyingi turli-tuman yangicha tadbirlari, to'y kuni sanoqsiz va qimmatbaho mashinalar bilan kelin-kuyovning sayrga chiqishi kabi dabdababozliklar xalqimizning asrlar davomida ardoqlab kelayotgan qadriyatlariga, milliy nikoh marosimlariga umuman to'g'ri kelmaydi.

Nikoh to'yi ikki oila, mahalla va qarindosh-urug' uchun xursandchilik, shodiyona hamda qalblarni junbushga keltiradigan qadriyat hisoblanadi. Ming yillardan buyon to'y bazmi ajdodlarimiz tomonidan nishonlanib kelinmoqda. To'y bazmi insonlarga zavq bag'ishlab ijtimoiy muloqotni yo'lga qo'yadi. Nikoh to'yida san'atning ko'p turlaridan foydalaniladi. Ayniqsa, qadimdan emg qamrovlisi kuy-qo'shiqlar bo'lib, ularsiz to'ylarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Nikoh qo'shiqlari to'ylar jozibadorligini oshirib kelgan. Insoniyat kuy-qo'shiqqa doimo oshno bo'lib, uning asnosida rohatlanib yashab kelmoqda. Musiqa tan va ruhni davolovchi vosita sifatida qadimdan ma'lumdir. Jamiki bashariyat, hayvonot va nabotot olamiga ta'sir qilish kuchi doirasida ham musiqa qudratli san'at turidir. Shu sababdan ham nikoh to'y bazmlari kuy-qo'shiqsiz o'tmaydi.

**“Ommaviy madaniyat va nikoh munosabatlari mohiyatidagi transformatsion sabablar”** deb nomlangan uchinchi paragrafda “ommaviy madaniyat” ta'siriga tushgan xalqlarda nikoh munosabatlarning o'z ahamiyatini yo'qotayotganligi, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va “erkinlik” g'oyalari asosida

paydo bo'lgan nikoh turlaridagi transformatsiyalar hamda demografik muammolarni keltirib chiqaruvchi holatlar o'rganilgan.

Bir jinsli nikohni qo'llab-quvvatlovchilar an'anaviy umuminsoniy va diniy urf-odatlarini inkor qiladilar. Marginallardek o'zgacha munosabat qoidalari va xatti-harakatlarini amalga oshirishni xohlaydilar. Milliy-diniy qadriyatlarini oyoq-osti qiladilar. Bunday guruhlar o'zlarining nigilistik qarashlari bilan ajralib turadi. Bir jinsli nikohdan o'tishni xohlovchilar jamiyatda mavjud oilaviy munosabatlarga qarshi chiqib, g'ayriaxloqiy va diniy qadriyatlarga zid bo'lgan qoidalarni ilgari surmoqdalar.

Qadimdan erkakning erkakka intilishidan jamiyat nafratlanib kelgan, ko'payishiga yo'l qo'ymagan... Endilikda esa bunday "oila" qurishga turli mamlakatlarda qonun yo'li bilan ruxsat berilmoqda. Bugungi kunda jahonning o'ttizdan ziyod: Niderlandiya (2001-yil (1)), Belgiya (2003-yil (2)), Ispaniya (2005-yil (3)), Kanada (2005-yil (4)), Janubiy Afrika Respublikasi (2006-yil (5)), Norvegiya (2009-yil (6)), Shvetsiya (2009-yil (7)), Portugaliya (2010-yil (8)), Islandiya (2010-yil (9)), Argentina (2010-yil (10)), Daniya (2012-yil (11)), Urugvay (2013-yil (12)), Yangi Zenlandiya (2013-yil (13)), Fransiya (2013-yil (14)), Braziliya (2013-yil (15)), Lyuksemburg (2015-yil (16)), Finlandiya (2015-yil (16)), Sloveniya (2015-yil (17)), Irlandiya (2015-yil (18)), Grenlandiya (2015-yil (19)), AQSH (2015-yil (20)), Puerto-Riko (2015-yil (21)), Kolumbiya (2016-yil (22)), Malta (2017-yil (23)), Germaniya (2017-yil (24)), Avstraliya (2017-yil (25)), Avstriya (2019-yil (26)), Tayvan (2019-yil (27)), Ekvador (2019-yil (28)), Buyuk Britaniya (2020-yil (29)), Kosta-Rika (2020-yil (30)) kabi davlatlarida bir jinsli fuqarolar o'rtasida nikohdan o'tishga qonunan ruxsat berildi. Bundan tashqari, Meksikaning 90% shtatlarida bir jinsli nikoh qonunlashtirildi. Shvetsariyada sun'iy homilador bo'lish sharti bilan faqat ayollarga bir-birlari bilan nikohdan o'tishga ruxsat bor. 2010-yil Islandiya parlamenti bir jinsli fuqarolar o'rtasida tuziladigan nikohni qonunan tan olish yuzasidan chiqarilgan qonunni tasdiqlaganidan so'ng, mamlakat bosh vaziri Yoxanna Sigurdardouttir o'rnak bo'lib hamjinsi bilan nikohdan o'tgan birinchi davlat rahbari sifatida tarixda qoldi. Kanada davlati hukumati esa 2011-yil cherkovlarda diniy qadriyatlarini asos qilib bir jinslilar o'rtasida nikoh o'qishni rad etish ta'qiqlandi. Ya'ni, bir jinsli fuqarolar cherkovga kelib ruhoniyaning diniy nikoh o'qishini xohlasalar din vakillari buni rad qilmasdan hamjinsbozlar xohishini bajarishlari shart qilib qo'yildi. Bu diniy qadriyatlarining oyoq-osti qilinishiga olib keldi. Diniy-axloqiy qadriyatlar insonlar ongidan yo'qola boshlashiga sabab bo'ldi.

Xo'p mazkur ijtimoiy muammolarga nima sabab bo'lmoqda? Postindustrial jamiyatda yashayotgan bugungi yapon ayollarining yarmidan ko'prog'i yetuklik davrigacha yolg'iz umr kechirmoqdalar. Ular nikohdan o'tish, oila, farzand, turmush o'rtoq haqida o'ylab ham ko'rmayaptilar. Asosiy maqsadlari amal pillapoyasidan ko'tarilish, iqtisodiy manfaatdorlik bo'lsa, shiorlari: "O'zing uchun yashab, hayot lazzatini tot" qabilida bo'lib qoldi. Hayotdan bunday lazzatlanishning oqibati qanchalik qonuniyatli bo'lsa, shunchalik qayg'uli hamdir.

2000 yilda yapon maktablari quyi sinflariga mamlakatning butun tarixida ilk bor eng kam bola keldi, vaholangki, hukumat farzandni olti yoshgacha tarbiyalash uchun subsidiyani yiliga 2400 dollorgacha ko‘paytirdi”<sup>1</sup>.

Kunchiqar mamlakatda bunday ijtimoiy larzalarning sodir bo‘lishiga va aholi sonining keskin kamayib ketishiga yana bir sabab, yapon yigitlarining ham oila qurishga, farzandli bo‘lishga shoshilmayotganliklaridir. Ayollarda ilm olishdan uzilib qolish, mansabda yuqorilashda to‘xtab qolishdagi qo‘rquv bo‘lsa, yigitlardagi nikoh munosabatlaridagi qarash butunlay boshqacha. Bu yerdagi yigitlar va erkaklar o‘zlari ta’kidlayotganliklari kabi “o‘txo‘r” bo‘lib qolishgan hamda har qanday nikohiy va nikohdan tashqari munosabatlardan o‘zlarini olib qochadilar. Bu yerlik yigitlarning fikrlaricha, yolg‘izlikda yashash nikohdan o‘tib, juft bo‘lib yashagandan ko‘ra tinchroqdir. Inson bir o‘zi yashasa, o‘zi xohlagan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi, o‘ziga ko‘proq vaqt ajratishi, o‘zi xohlagan taomlarni iste’mol qilishi mumkin, deb hisoblaydilar. Bunday “o‘txo‘r”lar nikoh, oilaviy qadriyatlardan internetda o‘tirib roliklar tomosha qilishni qiziqarliroq, deb baholamoqdalar.

Bobning **“Voyaga yetmaganlar nikohining sabablari va zararli oqibatlarining falsafiy-axloqiy tahlili”** deb nomlangan uchinchi paragrafida voyaga yetmaganlar nikohini keltirib chiqaruvchi sabablar va oila, jamiyatdagi zararli oqibatlari haqida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Avvalo, ushbu nikoh turiga ta’rif beradigan bo‘lsak: “Voyaga yetmaganlar nikohi - bu turmush qurayotgan juftlikning ikkalasi yoki bir nafari 18 yoshdan kichik bo‘lgan nikoh turidir”. Hali oilaviy qadriyatlar, nikoh, burch, turmush nimaligini anglab yetmagan bunday yoshlarning sog‘lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishi dargumon. Albatta, bu turdagi g‘ayriaxloqiy nikoh bugungi kunda bir qator xalqaro inson huquqlari tashkilotlari tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, tushuntirishlar olib borilmoqda, turli xil dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ammo shunday bo‘lishiga qaramasdan ba’zi hududlarda hamon uchramoqda.

Voyaga yetmaganlarning nikohdan o‘tayotganligi va yosh qizlarni erta homilador bo‘lib qolish sabablari nimada? Nega bunday g‘ayriaxloqiy holatlar rivojlangan davlatlarda emas, ko‘proq rivojlanmagan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uchramoqda? Buning bir qancha asosiy sabablarini keltirib o‘tishimiz mumkin:

birinchidan, mamlakat aholisining ijtimoiy ahvoli og‘irligi, oila a’zolarini boqish imkoniyatining pastligi, qalin pulining mavjudligi ota-onalarni yosh qizlarini erta turmushga chiqarishga majbur qiladi. Ba’zi mamlakatlardagi korrupsiya holatlarining o‘sib borishi ham xalqning ijtimoiy ahvolini og‘irlashtiradi. Natijada, ota-ona, yoki yolg‘iz ona bir nechta farzandini boqa olmaydi. Ular yosh qizlarini voyaga yetmasdan turmushga chiqaradilar yoinki “sotadilar”;

---

<sup>1</sup> Фойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. – 134 б.

ikkinchidan, hududlarda qonun ustuvorligi, huquq me'yorlariga amal qilmaslik oqibatida ta'lim olish imkoniyati pasayadi. Bolalarning, ayniqsa, qizlarning ta'lim olishi uchun oilalarda mablag'ning yetarli emasligi, umumta'lim yoki kasb-hunar maktablariga bormaslik, yoshlarning ko'pchiligini oliy ta'limga qamrab olinmaganligi, gender tengligining yo'qligi voyaga yetmaganlar nikohga olib keladi;

uchinchidan, ba'zi bir jamiyatlarda hali ham zararli odatlarning mavjudligi (masalan, qiz olib qochish), ayollarning, qizlarning qadr-qiymati pastligi, ularga go'yoki buyumdek munosabatda bo'lish holatlari uchrab turadi. Rivojlanmagan mamlakatlarning chekka hududlarida qizlar savdosining mavjudligi erta nikohga sabab bo'ladi;

to'rtinchidan, aholi sonining oshib borishi natijasida yoshlar o'rtasida ishsizlik sur'ati yuqorilab boradi. Jamiyatda o'qish, ish topish imkoniyatidan mahrum voyaga yetmagan qizlarni turmushga chiqarish ehtimoli oshib boradi;

beshinchidan, oilaviy yumushlarni bajarish ko'nikmalari qisman shakllangandan so'ng ba'zi oilalarda qizlar ota-onalari tomonidan turmushga chiqishga majbur qilinadilar, yosh qizlarning xohish-irodasi inobatga olinmaydi;

oltinchidan, mamlakatda gender siyosatining olib borilmasligi, sog'lom turmush tarzi va reproduktiv salomatlik haqida fikrlar bildirilmasligi, voyaga yetmaganlar nikohi oqibatida sodir bo'layotgan ayanchli hodisalar to'g'ri tahlil qilinib xalqqa yetkazilmasligi natijalarida yosh bolalarning nikohlari uchrab turadi;

yettinchidan, o'zbekona "katta oila"larda bobo-buvi yoki yoshi ulug'a'zolarining to'y ko'rib qolishi, nabiralarning xursandchilik kunlarining guvohi bo'lish istagining yuqoriligi. Bunday shoshma-shosharlik oqibatida qilingan to'y xursandchiliklari xunuklikka aylanib qolishi mumkin;

sakkizinchidan, xalqda diniy savodxonlikning yetarli emasligi, ota-onalar katta hayotga kirib kelayotgan yosh qizlarini ijtimoiy muammolardan himoya qilish maqsadida, ularni "eson-omon ertaroq egasiga topshirish" degan tushunchaning mavjudligi ham sabab bo'ladi.

to'qqizinchidan, ba'zi hududlarda qizlar voyaga yetgandan so'ng "vaqti o'tib ketib" qoladi, sovchilar bir kelib keyin kelmay qo'yadi, yoshi o'tgandan so'ng "qari qiz" bo'lib qolib ketadi degan ijtimoiy qo'rquvlar ota-onalarning farzandlari jismonan yoki ruhan oilaga tayyor bo'lmasalarda erta turmushga chiqishiga majbur qiladilar;

o'ninchidan, nikohdan o'tmoqchi bo'lgan ayrim yoshi katta yigitlarning o'zidan ancha yosh bo'lgan, ba'zida voyaga yetmagan qizlarga uylanish xohishining yuqoriligi.

Bobning "**Nikohdan tashqari munosabatlar ma'naviy-axloqiy muammo sifatida**" deb nomlangan to'rtinchi paragrafida diniy yoki huquqiy jihatdan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, birga yashab kelayotgan er-xotinning begona shaxs bilan jinsiy-emotsional aloqada bo'lishi yoki xiyonat qilishi kabi g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarning sabab va oqibatlari tahlil qilinadi. Nikohdan tashqari munosabatlar amoralizm holatlarni keltirib chiqarib, ijtimoiy me'yorlardan

og'ishga, etnoetik tizimlarni izdan chiqishiga va milliy-diniy qadriyatlar progressiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ekstravert tipdagi insonlar faol va ko'pincha tavakkalga tayanishlari sababli oilaviy qadriyatlardan qoniqmasa, nikohdan yetarli darajada estetik zavq ololmasa, intravert tipdagilarga qaraganda ko'proq nikohdan tashqari munosabatlarga kirishadilar.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida nikohdan tashqari munosabatlarning bir nechta sabablarini keltirib o'tamiz:

birinchidan, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida tuziladigan nikoh bo'lib, buning natijasida insonlar oila, oilaviy munosabatlar va turmush o'rtog'idan tez to'yinadi hamda ularda nikohdan tashqari munosabatlarga moyil deviant xulq shakllanadi;

ikkinchidan, nikohlanayotgan kelin-kuyov bir-birlarini yaxshi bilmasdan, tanimasdan nikohdan o'tadilar. Ularning nikohdan oldingi oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari nikohdan keyingi real hayot bilan mos kelmaydi;

uchinchidan, insoniyat hayotida bo'layotgan turli xil o'zgarishlar, ijobiy va salbiy ta'sirlar, ruhiy, moliyaviy, ma'naviy depressiyalar, mansab pillapoyasidan o'sish yoki tushish, yaqin insonlarni yo'qotish yoki turli xastaliklar stres yoki jo'shqin kayfiyatni paydo qiladi. Bunday holatga tushgan inson uni haqiqatda tinglay oladigan, dard-u hasratlariga tushunadigan, qiynalganida ko'mak beradigan sherik izlaydi. Turmush o'rtog'iga doimiy muammolarni aytish ham oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababdan ushbu holatlardan tashqarida bo'lgan juft izlab topadi;

to'rtinchidan, oilada farzandlarning dunyoga kelishi natijasida kelin-kuyovning asosiy e'tibori va mehri bolaga qaratiladi. Natijada bu juftlik bir-biriga kamroq vaqt ajratadi hamda oraga sovuqchilik tushadi. To'ldirilmagan mehr nikohdan tashqari munosabatlardan izlanadi;

beshinchidan, er yoki ayolning jismoniy yoinki aqliy mehnatga chuqur sho'ng'ib ketishi oqibatida oilaviy juftiga kamroq vaqt ajratadi. U bilan gaplashishga, kulishishga, shodlik lahzalarini tuyishga, qayg'uli va quvonchli hissiyotlariga sherik bo'lishga umuman vatq topmaydi. Natijada ular orasida hissiy ajralish sodir bo'ladi va ikkinchi tomon o'ziga boshqa "g'amxo'r" axtaradi;

oltinchidan, hayotning turli sinovlari davomida inson shaxsiy axloqiy-estetik ideali va qadriyatlari asosida qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar tabiiyki, turmush o'rtog'ining ideallariga mos tushmaydi. Kelib chiqqan nizolar natijasida asta-sekin oraga sovuqchilik tushib amoralizm hodisasi sodir bo'ladi. "Ancha keng tarqalgan va ko'pincha "buyuk muhabbat" sifatida talqin (kinofilmlar va romanlarda yana ham ko'proq vasf) qilinadigan soxta muhabbat shakllaridan biri – mabudaparastlik muhabbati.

Nikohdan tashqari munosabatlarni sodir bo'lishi, avvalo, erkak va ayol tarbiyasi, shakllangan muhiti, atrofdagilarning munosabati va shaxsiy psixologiyasiga bog'liq. Ayollarga nisbatan nikohdan tashqari munosabatlarga

moyillik erkaklarda kuchliroq bo‘ladi. Bunga asosiy sabab: erkakning erka va sho‘x holda ulg‘ayganligi bo‘lsa, keyingisi oilada ta‘minotchiligidir.

Nikohlangan har bir kelin-kuyov oilasini saqlab qolishi uchun turmush o‘rtog‘ining shaxsiy qadriyatlarini inobatga olishi, uni hurmat bilan ardoqlashi lozim. Kelin-kuyov bir-biriga quvonch baxsh eta olishi, juftining idealiga mos sifatlarni o‘zida uyg‘unlashtira olishi lozim. Oilada kuyov ulug‘vorlik (kuch-qudrat), kelin esa go‘zallik (nafislik va noziklik) kasb etishi lozim.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Nikoh qadimdan oilaning vujudga kelish asosi sanaladi. Nikoh – yangi oila bo‘lag‘asida turgan kelin-kuyovning bir-birlarini tanlash, birga yashashga rozilik bildirishlari va buni jamoaga ma‘lum qilishdagi o‘zaro munosabatlarning umumiy yig‘indisi. Har bir xalqning nikoh bilan bog‘liq odatlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan mohiyatan bir ma‘no kasb etadi. Bir oila bo‘lib yashashga qaror qilgan kelin-kuyovning ahdlashuvini jamiyatga ma‘lum qilish va ularni butun umr baxtli hayot kechirishlariga bo‘lgan tilaklar jamlanmasi.

2. Nikoh, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati bilan har bir davr olimlari qiziqib kelganlar. Sharq xalqlari falsafiy merosida nikoh konsepti - har bir insonning nikoh asosida oila qurib yashashi, jamiyat tomonidan o‘rnatilgan urf-odatlariga qat‘iy amal qilishi, nikohning muqaddasligi, nikohlanayotganlarning oilaviy hayotga tayyorligi, er-xotinning o‘z vazifalarini anglab, to‘liq ado etishi, oilaviy munosabatlarga oid ta‘bularga rioya etishi bilan xarakterlanadi. G‘arb tafakkurida esa nikohning ilohiylik bilan birga tabiiy-biologik ehtiyoj ekanligiga, kishilarni yuksak tuyg‘ular (erot) bilan bir-birlariga bog‘lab turishiga hamda baxt, muhabbat, rohat-farog‘at, huzurlanish manbaasi sifatida ulug‘lanishi bilan ajralib turadi.

3. Islomiy nikoh kishilarga axloqiy-ma‘naviy qarashlarida normalarni shakllantirib, ma‘lum reglamentlar, boshqaruv va nazorat usullarini taqdim etgan. Nikoh tufayli ayollarda poklik, vafodorlik, sadoqat, tozalik, orastalik singari burchlarni majburiy qilib qo‘yib, erkaklarda jinsiy yaqinlik odoblari, gigiyenasi, zinodan chekinish, nikohning buyukligi singari tartibga keltiruvchi umumiy imperativlarni shakllantirgan. Islomiy qadriyatlar sof tabiiy jinsiy intilishni ma‘naviy qobiqqa o‘rab, nikoh marosimlarini milliy ruhda shakllanishiga yo‘l ochgan va ayolni erkak oldida ma‘naviy-axloqiy go‘zal xilqat sifatida namoyon qilib, nikohidagi ayol poklik ramzi, ezgulik, mehr-muhabbat ramzi sifatida mujassamlashtirgan.

4. Nikoh marosimlarining axloqiy mohiyatida kelin-kuyovning bir-biriga muhabbati, sifatlarining mos, muvofiq ekanligi tarannum etiladi. Muhabbat inson axloqiy kamolotining yuksak ko‘rinishi. Nikoh yoshlar sevgisining aqliy va hissiy birligi garmoniyasini ta‘minlaydi. Burch – nikohga kirayotgan yoshlar zimmasiga mas‘uliyat hamda vazifa belgilovchi irodaviy tuyg‘u. Burch kelin va kuyovda

insoniy sifatlarni jamuljam qilishi bilan birgalikda, ijtimoiy hayotda o'z-o'zini anglash hamda faoliyatini tahlil qilish tuyg'ularini shakllantiradi. Adolat axloqiy kategoriya sifatida kelin-kuyov orasidagi munosabatlarni, ular o'rtasidagi aloqalar mezonini o'z ichiga oladigan kvitansiyadir.

5. O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining estetik mohiyatida xursandchilik, yangi paydo bo'layotgan oila baxtini nishonlash, qalblarni junbushga keltiradigan san'at asarlarini kuzatishimiz mumkin. Nikoh bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarining boshidan oxirigacha nafis harakatlar, xayolot kuchi orqali farovonlikka eltuvchi g'oyalar mujassam. Nikoh marosimlarida kelinga xos nafislik estetikaning go'zallik kategoriyasi asosida, kuyovga xos kuch-qudrat – ulug'vorlik kategoriyasi bilan, bo'lg'usi yosh oila baxtini ko'rolmaydigan dushmanlarning pinhoniyligini maqsadlari – tubanlik va kulgulilik kategoriyalari bilan, yoshlarni bitmas-tuganmas boylıklarga ega bo'lishi haqidagi tilaklar – xayoliylik hamda mo'jiziviylik kategoriyalari bilan ta'riflanadi.

6. O'zbek xalqi nikoh marosimlarining negizida, avvalo, arxaik e'tiqod, irim-sirim, zardushtiylig va islom dini qoidalariga yuksak hurmat hamda an'anaviy shakllanib kelgan milliy-estetik qadriyatlar yotadi. Qolaversa, diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi har bir oilaning yanada mustahkamligini ta'minlashga va yoshlarimizning shu aziz Ona Vatanimizning porloq kelajagi uchun xizmat qilishga keng imkoniyatlarni ochib beradi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi diniy e'tiqodlar, sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq odatlar insonlarni bir-biri bilan inoq va ahil bo'lib yashashga chorlagan. Xalqimizga xos bo'lgan sabr-toqat, bag'rikenglik fazilatlari hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylangan.

7. Nikoh bilan bog'liq kuy-qo'shiqlardagi sertuyg'ulik va o'ynoqilik, raqslaridagi nafislik va chaqqonlik, chimildiq naqshlaridagi serjilolik va ranglar tanlashda tabiatga taqlidlik, marosimlardagi(kelin salom, yor-yor) epiklik, polistilistika, sinkretlik o'lkamiz xalqlari madaniyatidagi badiiy-estetik o'ziga xosliklardir. Nikoh marosimlar uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida xalqning (etnosning) tarixiy-madaniy paradigmasidan chuqur joy olgan, uning hayotiy, badiiy-estetik, falsafiy-gnoseologik va transsendental izlanishlari jarayonida shakllangan, yaratilgan moddiy va ma'naviy boylıklar hisoblanadi. Ushbu marosimlar turg'un, muqim, barqaror, ba'zan konservativ xususiyatga ega bo'lsa-da, unda kelajakka yo'naltirilgan artefaktlar, qadriyatlar, g'oya va tajribalar mujassamdir.

8. O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsiyaga uchrashi o'z vaqtida yangilik deb qabul qilingan va urf-odatlar, taomillardan joy olgan qo'shni etnoslar madaniyatlari hisobidan kechgan. Bugungi holatda o'zbek nikoh marosimlari yana transformatsiyaga uchrashini biz innovatsion muhit bilan bog'lashimiz mumkin. Bevosita nikoh marosimlarining shou-biznes mahsuliga aylanishi, san'at asarlaridan joy olishi va ularning namoyishkoronaligi buning yaqqol isbotidir. Nikoh to'yi kuni o'tkazilayotgan o'yin-tomoshalar Yevropa

madaniyatiga qarab bormoqda. Milliyligimizga mos kelmaydigan bunday yot madaniyatlarni turli noxush vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda.

9. Bir jinsli nikohdan o'tgan juftliklar iqtisodiy, psixologik, jismoniy muammo va tazyiqlarga duch keladilar. Ularga nisbatan jamiyatda stigmatizatsiya va diskriminatsiya kuzatiladi. Ya'ni stigmatizatsiya (stigma-tamg'a, yorliq) bu juda kuchli ijtimoiy yorliq bo'lib, jamiyatda insonlar o'zlariga o'xshamagan LGBT larga ajratadilar, ular bilan aloqani uzib, munosabatlarini yomonlashtiradilar. Diskriminatsiya natijasida hamjinsbozlar va ularga qarshi salbiy ta'sir qiluvchi, huquqlarini cheklovchi, ijtimoiy hayotdan uzib qo'yuvchi harakat va harakatsizliklarni amalga oshiradi.

10. Qashshoqlik, kelin uchun to'lanadigan haq (Qalin puli), savodsizlik, bazi davlatlarda voyaga yetmaganlar o'rtasida tuziladigan nikohni ta'qiqlovchi qonunlarning mavjud emasligi, ayrim jamiyatlardagi diniy va ijtimoiy tazyiqlar, turmush qura olmaslikdan qo'rqish, mintaqaviy urf-odatlar, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnining pastligi, ayrim hududlarda ularning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlashga qodir emasligi voyaga yetmagan bolalar o'rtasida nikohning tuzilishiga olib keladi.

11. Milliy va diniy nikoh tushunchasining oyoq osti qilish natijasida yolg'iz yashayotgan insonlar sonining oshib borishi, Jamiyat hayot tarzi va oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatning keskin o'zgarishi, erkak konseptining insonlar tafakkuridagi oila boshlig'i degan o'rnining pasayishi, ko'p oilalarda patriarxatdan biarxatga ayrimlarida matriarxatga o'tishi, noto'liq oilalar sonining oshib borishi, oila g'ururi, ota-ona, aka-uka, mahalla sha'nidan shaxsiy-hirsiy manfaatlarning ustun qo'yilishi, insonlarda egotsentizm, individualizmning oshib borishi, moddiyatparastlikning oshib borishi natijasida axloqiy-diniy qadriyatlarning o'rnini aysh-u ishrat hamda o'tkinchi ko'ngilxushliklarning egallab borayotganligi bugungi kunda nikohdan tashqari munosabatlarga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyada bayon qilingan mulohazalar, olingan nazariy xulosalardan quyidagi taklif va tavsiyalarimizni taqdim etamiz:

*birinchidan*, OAV orqali nikohning axloqiy mohiyati va insonlar, jamiyat hayotida tutgan ahamiyati borasidagi targ'ibot-tashviqotni kuchaytirish hamda ajrim sabablari, ajrimdan keyingi oilalar tanazzuli, bolalar hayotiga salbiy o'zgarishlar, yosh kelin-kuyovlarda sabr-toqat, qanoat tushunchalarini rivojlantirishga doir ko'rsatuvlar ko'lamini kengaytirish;

*ikkinchidan*, "oilalar va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot institutida "O'zbek nikoh marosimlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati" mavzusida amaliy grant loyihasini yo'lga qo'yish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

*uchinchidan*, islom dini qoidalariga muvofiq oilada er-xotinning huquq va majburiyatlarini o'zida aks etgan, nikoh shartlari (mahr, taloq)ni tushuntiradigan majmuaviy dasturlarni ishlab chiqish hamda mobil ilovasini yaratish;

*to'rtinchidan*, mahallalarda ota-onalar bilan, maktab, litsey, OTMlarda yoshlar bilan davlat ro'yxatidan o'tmasdan va nikoh shartnomasi tuzmasdan yashashning salbiy oqibatlari bo'yicha doimiy ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazish;

*beshinchidan*, xalqimizda tarixdan mavjud bo‘lgan, oila mustahkamligining asosi bo‘lib xizmat qiladigan nikoh marosimlarining axloqiy va estetik mohiyatini keng ommaga tushuntirish, ularni obro‘sizlantirishga qaratilgan fikrlarga qarshi turuvchi sabablarni aniqlab, g‘ayriaxloqiy nikoh turlarini oldini olishda foydalanish;

*oltinchidan*, voyaga yetmaganlar nikohini oldini olish maqsadida, otanalarga, ushbu g‘ayriaxloqiy nihoh turining oila mustahkamligiga salbiy ta’siri va kelin-kuyov shaxsiyatidagi noodatiy o‘zgarishlarga olib kelishi bo‘yicha qo‘llanmalar, videoroliklar tayyorlab ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish;

*yettinchidan*, mahallalarda nikoh marosimlarining shavq, shodlik, quvonch bag‘ishlovchi estetik kechinmalarini insonlar qalbiga singdirish, mental xususiyatlariga yot bo‘lgan odatlardan voz kechish maqsadida nuroniylardan iborat jamoatchilik kengashini tuzish;

*sakkizinchidan*, mamlakatimizdagi barcha OTM ikkinchi bosqich talabalari uchun “Nikohning milliy, diniy va huquqiy mohiyati” mavzusida maxsus o‘quv kurslarini joriy etish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА  
РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**КОМИЛОВ РУЗИ РАБИЕВИЧ**

**НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И  
ТРАНСФОРМАЦИЯ БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКСКОГО  
НАРОДА**

**09.00.02 – Философия форм сознания, культуры и практики (Этика)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

**Самарканд – 2023**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.3.DSc/Fal63.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) и размещен на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и на Информационно образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Гайбуллаев Отабек Мухаммадиевич</b> доктор философских наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Самадов Ақтамкул Рафикович</b> доктор философских наук, доцент <b>Нурматова Мукаррам Ахмедовна</b> доктор философских наук, профессор <b>Шарипов Абдухакимжон Зиёитдинович</b> доктор философских наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Джизакский государственный педагогический университет</b>

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ф.02.02 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетская аллея, дом 15, Тел. (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: [rektor@samdu.uz](mailto:rektor@samdu.uz)). Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Исторический факультет, 1-й этаж, комната 105).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетская аллея, дом 15. Тел (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Ш.Ш.Негматова**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор философских наук (DSc), профессор

**Х.А.Джуракулов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор философских наук (DSc), доцент

**А.Р.Самадов**  
Председатель научного семинара при Научном совете  
по присуждению ученых степеней,  
доктор философских наук (DSc), доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Глобальные изменения в мире характеризуются деградацией брачных отношений, которые веками определялись в культурной жизни народов. Без понимания сути брака и семейных ценностей формируются нигилистические слои, которые оценивают их как нарушение утраты, подрыв человеческой свободы. Такие взгляды в равной степени входят в жизнь народов Запада и Востока. Поэтому осознание нравственно-воспитательной и этноэстетической природы семейно-брачных отношений, изучение трансформационных аспектов и изучение значения человечества в прогрессивном развитии остается актуальным как одно из требований сегодняшнего дня.

В мировой науке теоретико-методологические и практические исследования семейно-брачных отношений проводятся всеми институтами, центрами, исследователями социально-гуманитарной сферы. В частности, научные и фундаментальные работы, выполненные по эволюции возникновения и развития брака, социально-психологическим характеристикам удовлетворенности браком, лингвокультурологической интерпретации брачных этнографизмов, влиянию брака на демографические изменения человечества, классификации функций религиозных, национальных, правовых отношений в порядок оформления брака имеет первостепенное значение. В то же время, в результате деформации семейных ценностей в эпоху глобализации, нарастающей хаотической динамики и деградации «взаимного уважения», «эмоционального устремления» объективной необходимостью становится сохранение эстетической природы и морально-аксиологических качеств брачных отношений, исследование позитивных и негативные последствия их трансформации.

Обеспечение прочности и благополучия Института семьи и брака в нашей стране, пропаганда национальных и общечеловеческих ценностей, воспитание здоровой, патриотически настроенной молодежи также было одним из приоритетов государственной политики. «Школа, которая учит человека гуманизму, хорошему поведению, образованности и, в целом, положительным качествам, - это семья. В нашем народе есть пословица, что «птица делает то, что видит в своем гнезде». Воспитание - мы не ошибаемся, когда говорим, что оно начинается с семьи. Под этим мы подразумеваем здоровую, зрелую семью, стремящуюся к совершенству. Чем здоровее семья, тем более пропорциональным будет общество»<sup>1</sup>. В этом контексте возникает необходимость в предотвращении браков среди несовершеннолетних, уплотнении семейных ритуалов и научном анализе того факта, что некоторые из обычаев, связанных с браком, не соответствуют нашим моральным ценностям, будучи трансформированными.

Диссертация в определенной степени служит во исполнение задач, отмеченных в таких нормативно-правовых актах, как Указы Президента

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 72-73.

Республики Узбекистан № УП 60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года, № УП-87 “О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин” от 7 марта 2022 года, № УП 6108 “О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» 6 ноября 2020 года, № УП 5106 «О мерах по повышению эффективности государственной молодежной политики и поддержке деятельности союза молодежи Узбекистана» от 5 июля 2017 года, № ПП 146 «Об организации деятельности государственного комитета семьи и женщин» от 1 марта 2022 года, № ПП 3808 «Об утверждении концепции укрепления института семьи в республике Узбекистан» от 27 июня 2018 года, а также в других нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информированного общества и демократического государства, и пути их реализации».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.<sup>1</sup>**

Происхождение брака, его философская, религиозно-нравственная, правовая, психолого-педагогическая сущность в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Пенсильванском университете, Университете штата Юта (США), Университете Уппсалы (Швеция), Universität Wien, Университет Инсбрука (Австрия), Гамбургский университет (Германия), Тамбовский государственный университет, Кубанский государственный университет (Россия), Хиросимский университет (Япония), Корейский институт здравоохранения и социальных дел (Южная Корея), Казахский национальный педагогический университет им.), ведущие ученые и философы Национального университета Узбекистана и Самаркандского государственного института иностранных языков проводят значительные исследования семейно-брачных отношений.

Значение брачных отношений в жизни человека и его этнокультурная сущность, ассимиляционные процессы, конфессиональная принадлежность проводились в ряде научных исследований в мире, в том числе получены следующие научные результаты: на Востоке и на Западе отношения между юношей и девушек до вступления в брак научно обосновано их

---

